

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA**

**MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**HISOB VA AUDIT FAKULTETI**

**“AUDIT” KAFEDRASI**

**IBADULLAEV ULUG'BEK OSERBAEVICH**

**«INVESTITSIYALAR HISOBINI BUXGALTERIYA  
HISOBINING MILLIY STANDARTLARI ASOSIDA TASHKIL  
QILISH»**

5340900 -“Buxgalteriya hisobi va audit”- ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr  
darajasini olish uchun yozilgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»**

«Audit» kafedrası mudiri

\_\_i.f.n., dots., I.Qo'ziev

« \_\_ » \_\_\_\_\_ 2016 y.

**Ilmiy rahbar:** \_\_k.o'q. I.Avazov

« \_\_ » \_\_\_\_\_ 2016 y.

**TOSHKENT - 2016**

Men, \_\_\_\_\_XBA-72 akademguruh talabasi ushbu

Talabaning F.I.Sh.

BMini mustaqil bajardim, ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'ygan holatimda BMI kafedra mudiri taqdimnomasiga asosan rektor buyrug'i bilan bekor qilinishi va "qoniqarsiz" baho qo'yilishini bilaman.

Talabaning F.I.Sh. va imzosi, sana

---

## MUNDARIJA:

<b>K I R I S H</b> .....	<b>3</b>
<b>I.BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALSH SHAROITIDA INVESTITSİYALAR HISOBINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI</b> .....	<b>6</b>
<b>1.1.</b> Investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ahamiyati. ....	6
<b>1.2.</b> Investitsiyalar hisobining ahamiyati, maqsadi va vazifalari. . .	15
<b>II.BOB. MILLIY STANDARTLAR ASOSIDA MOLIYAVIY INVESTITSİYALAR HISOBINI TASHKIL QILISHNING HOZIRGI HOLATI</b> .....	<b>24</b>
<b>2.1.</b> Moliyaviy investitsiyalar hisobini yuritish tartibi. ....	24
<b>2.2.</b> Milliy standartlar asosida investitsiyalarni baholash tartibi. ....	28
<b>2.3.</b> Sho’’ba jamiyatlariga yo’naltirilgan investitsiyalarni baholash xususiyatlari. ....	35
<b>III.BOB. KORXONALARDA MOLIYAVIY INVESTITSİYALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO’NALISHLARI</b> ..	<b>41</b>
<b>3.1.</b> Milliy standartlar asosida moliyaviy investitsiyalar hisobini takomillashtirish masalalari. ....	41
<b>3.2.</b> Xalqaro standartlar asosida investitsiyalarni baholashni takomillashtirish. ....	44
<b>Xulosa</b> .....	<b>52</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati</b> .....	<b>57</b>

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi.** O'zbekiston iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida investitsion faollikning oshirilishi, investitsiya resurslaridan samarali foydalanish, katta hajmdagi moliyaviy investitsiyalarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Qisqa vaqt mobaynida respublikamiz iqtisodiyotiga katta hajmdagi investitsiyalar kiritildi va ular o'z ijobiy samarasini bermoqda.

Bu borada Prezident I.A.Karimov so'z yuritar ekan shunday deydi: «Mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish borasida bajarilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiq. 2015 yilda ana shu maqsadlarga barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 15 milliard 800 million AQSh dollari miqdorida investitsiyalar jalb etildi va o'zlashtirildi. Bu 2014 yilga nisbatan 9,5 foiz ko'p demakdir. Jami investitsiyalarning 3 milliard 300 million dollardan ziyodi yoki 21 foizdan ortig'i xorijiy investitsiyalar bo'lib, shuning 73 foizi to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalaridir. Investitsiyalarning 67,1 foizi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo'naltirildi. Bu esa 2015 yilda umumiy qiymati 7 milliard 400 million dollar bo'lgan 158 ta yirik ishlab chiqarish ob'ekti qurilishini yakunlash va foydalanishga topshirish imkonini berdi.

2015 yilda amalga oshirgan keng ko'lamli, uzoqni ko'zlagan islohotlarni hayotga tatbiq etish erkin tadbirkorlikka keng imtiyoz va preferentsiyalar yo'lini ochib berish, investitsiyalar, avvalo, chet el investitsiyalarining hajmini oshirish va joriy etish iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini va uning makroiqtisodiy mutanosibligini ta'minlash bo'yicha o'z ijobiy ta'sirini berdi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

2016 yil uchun belgilangan, umumiy qiymati 5 milliard dollardan ziyod bo'lgan 164 ta yirik investitsiya loyihasini belgilangan muddatlarda so'zsiz

ishga tushirishni ta'minlash bo'yicha zarur chora-tadbirlarni kechiktirmasdan amalga oshirish lozim»<sup>1</sup>.

Darhaqiqat xo'jalik yurituvchi sub'yektlarga o'z moliyaviy resurslaridan foydalanishda mustaqillik berilishi, respublikamiz va chet el investorlarining investitsiyalarini jalb qilish uchun huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilganligi, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning iqtisodiy aloqalari uyg'unlashuvi, yangicha moliya vositalari va omillarining vujudga kelishi uzoq muddatli investitsiyalashning ilgari amalda bo'lgan tashkiliy mexanizmini tubdan isloh qilmoqda.

Mana shu holat O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarni baholash bozor munosabatlari talablari va mezonlari darajasida tashkil qilishni va takomillashtirishni uslubiy jihatdan asoslab berishni, korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan uzoq muddatli va qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalarning hozirgi davr shart-sharoitlariga mos keladigan qoidalarini ishlab chiqish zarurati talab etilmoqda.

Ko'rib chiqilayotgan bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi, respublikamizda korxonalarining investitsiyalarini baholash buxgalteriya hisobining milliy standartlarini xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari bilan taqqoslash muammolari, ularning nazariy jihatdan yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi hamda hozirgi sharoitda alohida amaliy ahamiyatga ega ekanligi bitiruv malakaviy ishining mavzusi, maqsadi va vazifasini hamda natijalarining yo'nalishini tanlashni belgilab berdi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishining maqsadi korxonalarda investitsiyalar hisobini buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida tashkil etish masalalarini takomillashtirishni nazariy asoslash hamda aniq tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- investitsiya tushunchasining iqtisodiy mohiyatini ochib berish;

---

<sup>1</sup> I.A.Karimovning "Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir" T., O'zbekiston 2016 y. 15 yanvar 6-7 betlar.

- moliyaviy investitsiyalar hisobining uslubiy muammolarini aniqlash;
- milliy standartlar asosida investitsiyalarni baholash va buxgalteriya hisobida aks ettirishning hozirgi holatini tadqiq qilish;
- sho'ba jamiyatlariga yo'naltirilgan investitsiyalarni baholashni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- investitsiyalarni baholashni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti.** Investitsiyalar hisobini buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida tashkil etish hamda amaldagi qonunlar va me'yoriy hujjatlar doirasida takomillashtirish bitiruv malakaviy ishining predmeti hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti,** «Nokis vinozavodi» aksiyadorlik jamiyati xujjatlari ma'lumotlari bo'lib hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ish natijalari nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Unda O'zbekiston Respublikasining hududida mavjud bo'lgan korxonalarining investitsiyalari hisobini milliy hamda xalqaro standartlarni hisobga olgan holda takomillashtirish bo'yicha bir qator uslubiy tavsiyalar, investitsion faoliyatini hisoblash jarayonini tartibga solib turuvchi me'yoriy bazani yaxshilashga doir takliflar ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishda bayon qilingan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalardan moliyaviy investitsiyalarni baholash uchun moliyaviy hisobotni tahlil qilish negizida qarorlar qabul qilayotgan mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalarining investorlari, shuningdek, korxonalarining o'zi ham investitsion siyosatni belgilab olib foydalanishlari mumkin bo'ladi.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibi** kirish, uchta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

# **I BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA INVESTITSIYALAR HISOBINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI**

## **1.1. Investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ahamiyati**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida Respublikamiz iqtisodiyotining barcha bo'g'inlarda investitsion faollikning oshirilishi, investitsiya resurslaridan samarali foydalanish, katta hajmdagi investitsiyalarni amalga oshirish taqozo etmoqda, yangi tarmoqlar bunyod etilmoqda, qo'shma korxonalar soni oshib bormoqda. Respublikamiz iqtisodiyotiga safarbar etilgan yirik miqiyosda investitsiyalar import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishning barpo qilinishi va yangi mahsulot turlarining o'zlashtirilishi bilan bog'liq bo'ldi.

Bunday tuzilmaviy o'zgartirishlar jahon xo'jaligiga kirib borish, mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishish imkoniyatlarini yaratadi.

Investitsiyalashning ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilash, ilmiy asoslangan investitsiya qarorlarini qabul qilish investitsiya faoliyatini oqilona tartibga solish asosida ichki va tashqi moliyaviy manbalarning barcha shart-sharoitlarini hisobga olgan holda jalb qilish milliy iqtisodiyotning kelajagini belgilaydi. Mamlakatimiz investitsiya faoliyatida, ayniqsa, xorijiy investitsiyalar ishtiroki kuchayib bormoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Bir so'z bilan aytganda, 2016 yilda iqtisodiyotimizni rivojlantirish, modernizatsiya qilish va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun 17 milliard 300 million dollar qiymatidagi investitsiyalar yo'naltirish, ularning o'sish sur'atini 109,3 foizga etkazish belgilangan. Ana shu investitsiyalarning 4 milliard dollardan ortig'ini xorijiy investitsiyalar tashkil qiladi, bu 2015 yilga nisbatan 20,8 foiz ko'pdir.

Shu borada muhim bir masalaga e'tiboringizni alohida jalb etmoqchiman. Ya'ni, ilgari tushimizda ham ko'rmaydigan investitsiyalar, avvalo, chet el investitsiyalarini iqtisodiyotimiz taraqqiyotiga jalb etar ekanmiz, biz avvalo,

shular hisobidan xorijdan olib keladigan texnika va texnologiyalar zamon talabiga javob beradigan eng yuqori darajada bo'lishi shart"<sup>1</sup>.

Investitsiya faoliyatidagi burilishlar, ta'kidlangan vazifalarni echish; investitsiyalashning davlat mexanizmini erkinlashtirib borish va bozor mexanizmlarida qo'llaniladigan sohalarini kengaytirish; investitsiyalashni o'z jamg'armalari hisobidan ta'minlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy qilish; loyihaviy, korporativ moliyalashtirish, lizing kabi yangi usullardan foydalanish sohalarini kengaytirish talab qilinadi.

Oxirgi yillar davomida bozor islohotlarining zafarli yurishi natijasida «investitsiyalar» atamasi keng qo'llaniladigan tushunchalardan biri bo'lib qoldi.

Har taraflama asoslangan, puxta o'ylangan investitsiya qarorlarini investitsiyalarni moliyalashtirishning ishonchli manbalari bilan chambarchas bog'liqlikda qabul qilish zarurligini va chet el kapitalini jalb qilishning kengayib borayotganligini hisobga oladigan bo'lsak, hozirgi zamon moliya nazariyasi nuqtai nazaridan investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va mohiyatini ochib berish, ularning eng muhim sifat tavsiflarini aniqlash g'oyat dolzarb masala hisoblanadi.

Investitsiyalarning mazmun va mohiyatini aniq ochib berish uchun pul oqimlarining zamonaviy va bo'lajak qiymatlaridan kelib chiqqan holda tahlil olib borish maqsadga muvofiq.

Iqtisod fanlarining turli tarmoqlarida, amaliy faoliyatning turli yo'nalishlarida investitsiyalashning maqsadlari, harakatlar yo'nalishi, sohalar xususiyatlari, safarbar etilish ob'ektlari, harakat yo'nalishlaridan kelib chiqib va ahamiyatiga qarab «investitsiyalar» tushunchasi o'ziga xos ma'noda ishlatiladi. Moliya nuqtai nazaridan ularning mazmun va mohiyatini aniq belgilash muhim vazifa hisoblanadi. Investitsiyalar bo'lajak natijalarni qo'lga kiritish maqsadida, mohiyatan hozirgi xarajatlarni bildiradi.

---

<sup>1</sup> I.A.Karimovning "Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir"<sup>T</sup>., O'zbekiston 2016 y. 15 yanvar 6-7 betlar.



«Investitsiya» atamasi lotin tilidagi “Invest” so’zidan kelib chiqqan bo’lib «qo’yish», «mablag’ni safarbar etish» ma’nosini bildiradi. Keng ma’noda investitsiyalar ko’paytirib qaytarib olish maqsadlarida kapitalni bog’lashni bildiradi. Ko’pgina hollarda «investitsiyalar» tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat ob’ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta’riflanadi.

Investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va mohiyatini ko’rib chiqishda shuni ta’kidlash lozimki, iqtisodiy adabiyotlarda «investitsiyalar» atamasini «kapital qo’yilmalar», «kapital» tushunchalari bilan aynan ma’nolarda qo’llash holatlari ko’p uchraydi. Bunday hollarda investitsiyalar asosiy kapitalga mablag’lar qo’yish ma’nosida talqin qilinadi. Ayni paytda shuni ham nazarda tutish kerakki, investitsiyalar nomoddiy aktivlarga ham, intellektual mulkka ham, aylanma aktivlarga, shu jumladan, moliyaviy vositalarga ham taalluqli.

Investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag’lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, risklar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko’zlangan samaraga erishishdan iborat bo’ladi. Ana shu belgilarga ko’ra investitsiyalar boshqa qo’yilmalardan mazmunan farq qiladi.

Bularning barchasi asosida kapitalning harakatlanish jarayoni yotadi. Kapitalning esa harakat qilish jarayoniga jalb etilishi investitsiyalarni mohiyatini aks ettiradi.

Investitsiya kiritish maqsadlari va ular bilan bog’liq risklardan kelib chiqqan holda investitsiyalar venchur (riskli), bevosita, portfel va annuitet kabi turlarga tasniflanadi. Ma’lumki, katta risklar bilan bog’liq bo’lgan, yangi faoliyat sohalarida yangi aksiyalar chiqarish venchur kapital shakli hisoblanadi


Demak, investitsiyalar aniq va noaniq, lekin ehtimol risklar ostida kapitalni muayyan jarayonlarga, muayyan vaqtga bog’lash bo’lib, uning hozirgi qiymatini saqlash, kapitallashtirish va jamg’arish maqsadiga qaratiladi.

Investitsiyalarning iqtisodiy mazmuniga ko’ra quyidagi turlari mavjud:

- real investitsiyalar;

- moliyaviy investitsiyalar;
- intellektual investitsiyalar.

Real investitsiyalar - bu korxonaga asosiy vositalarini vujudga keltirish va takror ishlab chiqarishga, shuningdek, moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investitsiyalardir. Buxgalteriya hisobida bu turdagi investitsiyalar kapital qo'yilmalar sifatida e'tirof etiladi.



### 1-chizma. Investitsiyalar tasnifi<sup>1</sup>

Moliyaviy investitsiyalar-daromad olish (xuddi foizlar, dividendlar va ijara haqi singari) va asosiy kapital qiymatini ko'paytirish maqsadida uning tasarrufida bo'lgan korxonaga aktivlaridir.

<sup>1</sup> G'ozibekov A. "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" Toshkent-2007, 19b

Intellektual investitsiyalar - bu korxonaning intellektual boyliklarini xarid qilishga sarflangan mablag'laridir.

Moliyaviy investitsiyalar muddatiga ko'ra qisqa muddatli va uzoq muddatli bo'ladi.

Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar - bu uzoq muomala muddatiga ega (12 oydan ortiq) aktivlarning sotib olinishiga oid investitsiyalardir.

Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar - o'zida muomala muddati 12 oydan oshmaydigan, yengil sotiladigan moliyaviy aktivlarning xarid qilinishiga oid investitsiyalardir.

Moliyaviy investitsiyalarni buxgalteriya hisobida hisobga olishni yengillashtirish uchun quyidagi guruhlariga ajratiladi:


- ◆ Qimmatli qog'ozlar;
- ◆ Sho'ba korxonalariga investitsiyalar;
- ◆ Qaram birlashmalarga investitsiyalar;
- ◆ Qo'shma korxonalariga investitsiyalar;
- ◆ Boshqa moliyaviy investitsiyalar.

Qimmatli qog'ozlar uzoq muddatli investitsiyalarning asosiy qismini tashkil etadi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida qimmatli qog'ozlar investitsiyalar yo'naltirishning asosiy vositasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan «Qimmatli qog'ozlar va fond birjalari to'g'risida»gi qonuniga muvofiq qimmatli qog'ozlar - bu ularni chiqargan shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlovchi, dividend yoki foiz ko'rinishida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxsga berish imkoniyatini nazarda tutuvchi pul hujjatlaridir». Yuqorida qayd etilgan qonunga ko'ra, qimmatli qog'ozlarga:

- ◆ aksiyalar;
- ◆ obligatsiyalar;
- ◆ xazina majburiyatlari;
- ◆ depozit va xazina sertifikatlari;

- ◆ veksellar;
- ◆ hosilaviy qimmatli qog'ozlar kiradi.



## 2-chizma. Moliyaviy investitsiyalarning tasnifi<sup>1</sup>

Aksiya (gollandcha *actie* so'zidan olingan bo'lib, qimmatli qog'oz degan ma'noni anglatadi) - bu aksiyadorlik jamiyatining ustav fondiga muayyan hissa

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi.

qo'shganlikdan guvohlik beruvchi, uning egasiga foydaning bir qismini olish va, odatda, ushbu jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqini beruvchi qimmatli qog'ozdir.

Aksiya amal qilish muddati cheklanmagan qimmatli qog'oz bo'lib, u uni chiqargan aksiyadorlik jamiyati amal qilib turgan vaqt mobaynida muomalada bo'lishi mumkin.

Aksiyalar bo'yicha olingan daromad dividend (lotincha *dividendus* so'zidan olingan bo'lib, bo'lishga tegishli degan ma'noni anglatadi) deb nomlanadi. Dividend, odatda, aksiyadorlik jamiyatining foydasiga bog'liq bo'ladi. Agar kompaniya hisobot yili natijalariga ko'ra foydaga ega bo'lsa, katta dividend to'lash imkoniyati bo'ladi va aksincha.

Aksiyalar ikki turga bo'linadi:

- ◆ oddiy aksiyalar;
- ◆ imtiyozli aksiyalar.

Oddiy aksiya aksiyadorlar yig'ilishida ovoz berish huquqini beradi, olinadigan dividend miqdori aksiyadorlik jamiyatining olgan sof foydasiga bog'liq va boshqa hech narsa bilan kafolatlanmagan.

Imtiyozli aksiyalar aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ovoz berish huquqini va bu bilan korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqini bermaydi. Ularning imtiyozliligi shundaki, xo'jalik faoliyati natijalaridan qat'iy nazar kafolatlangan daromadni olish imkoniyatini, ikkinchi tomondan, aksiyadorlik jamiyati tugatilgan vaqtda aksiyalar qiymatini birinchi navbatda olish huquqiga ega.

Obligatsiya (lotincha *obligatio* so'zidan olingan bo'lib, majburiyat ma'nosini anglatadi) - bu uning egasi qarz berganligidan guvohlik beruvchi, unga ushbu qimmatli qog'ozning nominal qiymatini unda ko'rsatilgan muddatda belgilangan (qat'iy) foiz to'langan holda qoplash majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozdir.

Obligatsiya - bu bir shaxsning (investorning) boshqa bir shaxsga(emitentga) mablag'larni vaqtinchalik foydalanish uchun berganligi

haqidagi guvohnomadir. Obligatsiyalardan olinadigan daromad foiz ko'rinishida bo'ladi.

Xazina majburiyatlari - bu ularning egalari tomonidan byudjetga pul mablag'larini berganliklarini tasdiqlovchi hamda ushbu qimmatli qog'ozlarga egalik qilishning butun muddati davomida belgilangan daromadni olish huquqini beruvchi davlat qimmatli qog'ozlaridir. Ular jismoniy shaxslar uchun chiqariladigan qimmatli qog'ozlardir.

Depozit sertifikatlari (inglizcha *certificate of deposit*)- bu pul mablag'larini omonatga qo'yilganligi to'g'risida, omonatchiga belgilangan muddat tugagandan so'ng depozit summasi va unga tegishli foizlarni olish huquqini beruvchi kredit muassasasining guvohnomasidir. 1994 yildan boshlab depozit sertifikatlari yuridik shaxslar uchun 1 yilgacha muddatga, jismoniy shaxslar uchun 3 yilgacha bo'lgan muddatga chiqarila boshlandi.

Veksel (nemischa *Wechsel* so'zidan) - bu veksel beruvchining yoki vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda ko'zda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga ma'lum miqdordagi summani to'lash haqidagi so'zsiz majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozdir. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, veksellar korxonalar va tashkilotlar tomonidan aniq savdo bitimi asosida yozilishi mumkin.

Hosilaviy qimmatli qog'ozlar - bu shartnomalar bo'lib, ular bo'yicha bir tomon qimmatli qog'ozlarning ma'lum bir miqdorini ma'lum muddatda kelishilgan narxda sotib olish yoxud sotish huquqi yoki majburiyatini oladi. Ularning quyidagi turlari mavjud:

- ◆ opsiyon;
- ◆ varrant;
- ◆ fyuchers.

Opsiyon (lotincha *optio* so'zidan olingan bo'lib, tanlov degan ma'noni anglatadi) - bu bitimda ishtirok etayotgan tomonlarning biriga qimmatli qog'ozlar ma'lum bir miqdorini muayyan vaqt mobaynida belgilangan narxda sotib olish yoki kontragentga sotish huquqini beruvchi shartnomadir. Kontragent

esa, mukofot evaziga ushbu huquqni amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Varrant (nemischa *warrant* so'zidan) - bu uning egasi ma'lum muddat davomida yoki ma'lum bir kunda varrantlar emitenti tomonidan dastlabki chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish huquqini olganligi tasdiqlovchi hujjat.

Fyuchers (inglizcha *future* so'zidan olingan bo'lib, kelajak ma'nosini anglatadi) kelishilgan miqdordagi qimmatliklarni ma'lum vaqt mobaynida bitim tuzish vaqtida belgilangan narxda etkazib berish to'g'risidagi shartnomalarni o'zida namoyon qiladi.

Respublikamiz amaliyotida uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni yo'naltirishning asosiy vositasi aktsiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlarini xarid qilish hisoblanmoqda.

Korxonaning sho'ba korxonalar, qo'shma korxonalar va qaram birlashmalarga investitsiyalari mavjudligi ularning buxgalteriya hisobida alohida turkumlarga ajratilishini taqozo etadi.

Investor investitsiya ob'ektlari va natijalariga, jumladan, reinvestitsiyalar va savdo ishlariga egalik qilish va ularni o'z ixtiyoridan kiritishi huquqiga egadirlir. Investitsion faoliyat ob'ektlarining o'zaro munosabatlari, shartnomalar bilan tartibga solinadi.

Bugungi kunda ichki investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha:

- tijorat tuzilmalarini kafolatga bo'lgan talabini ta'minlash maqsadida kafolat-garov jamg'armalari tizimini shakllantirish;

- aholi bo'sh pul mablag'larini investitsion jarayonlarga jalb qilish maqsadida qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish, turli qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish (uy-joy sertifikatleri va uy-joy obligatsiyalari);

- ishlab chiqarishni tuzilmaviy-texnologik qayta qurishni jadallashtirish maqsadida markazlashgan kredit resurslarning bir qismini tez qoplaydigan

investitsion loyihalarni moliyalashtirishga qaratish, shu jumladan kichik biznes ob'ektlariga yo'naltirish;

- investitsion loyihalarni moliyalashtirishning nokredit usullaridan bo'lgan lizing, franchayzing, faktoring kabilardan foydalanishni kengaytirish;

- investitsion loyihalarni sifatini oshirish, loyihalarni kapital qo'yilmalar samaradorligi talablariga mos kelishi maqsadida tijorat asosida doimiy ravishda faoliyat yuritadigan investitsion loyihalar ko'rgazmasini tashkil qilish ishlari amalga oshirilib kelinmoqda.

## **1.2. Investitsiyalar hisobining ahamiyati, maqsadi va vazifalari**

Investitsiyalar hisobining maqsadi foydalanuvchilarni moliyaviy investitsiyalar to'g'risidagi to'liq, ishonarli, o'z vaqtida tuzilgan axborotlar bilan ta'minlash bo'lib hisoblanadi. Bundan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash mumkinki, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda investitsiyalar hisobining maqsadi moliyaviy investitsiyalar buxgalteriya hisobini to'g'ri, o'z vaqtida tashkil etish hamda u bilan bog'liq daromad va xarajatlarni moliyaviy natijalarda to'g'ri aks ettirish hisoblanadi.

Investitsiyalarni hisobga olishning vazifalari quyidagilardir:

- investitsiyalarni va ular bo'yicha olingan daromadlarni o'z vaqtida va to'g'ri aniqlash;

- investitsiyalar uchun ajratilgan mablag'larni o'z vaqtida hisobdan chiqarishni ta'minlash;

- investitsiyalarni hisobga olishda BHMAlarini keng qo'llash;

- investitsiyalardan olingan daromadlarning korxonada moliyaviy natijalarida aks ettirilishini ta'minlash;

- investitsiyalardan olingan daromadlarning byudjetga tegishli qismini amaldagi me'yoriy hujjatlarga, Soliq Kodeksining talabiga muvofiq to'g'ri hisoblashni tashkil qilish, byudjetga tegishli qismini o'z vaqtida o'tkazishni ta'minlash;



- investitsiyalar hisobiga kelib tushgan mablag'lardan korxonani kengaytirish, rivojlantirish va korxonaga jamoasi ehtiyoji uchun ishlatishni ta'minlash.

Investitsiyalar hisobini yuritishga aloqador bo'lgan rahbarlar, buxgalterlar va boshqa shaxslar buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishda buxgalteriya hisobining quyidagi asosiy printsiplariga rioya qilishlari kerak:

- buxgalteriya hisobini ikkiyoqlamali yozuv usulida yuritish;
- davomiylik (uzluksizlik);
- xo'jalik muomalalari, aktiv va passivlarni pulda baholash;
- ishonchlilik;
- hisoblash;
- oldindan ko'ra bilishlik (ehtiyotkorlik);
- shaklidan mazmunining ustivorligi;
- ko'rsatkichlarni taqqoslash;
- hisobotni holisligi;
- hisobot davri daromad va xarajatlarini mos kelishi;
- aktiv va majburiyatlarni haqiqiy baholash

Investitsiyalar inflyatsiya sharoitida pul mablag'lari qadrsizlanishining oldini olish, qo'shimcha daromad olish va boshqa korxonaga faoliyati ustidan nazorat o'rnatish maqsadida amalga oshiriladi.

Xo'jalik sub'ektlari bilan uning tashqi va ichki manbalari o'rtasida investitsiya resurslarining eng samarali harakatini ta'minlash borasida qaror qabul qilish investitsiyalarni boshqarishdagi asosiy vazifa hisoblanadi. Shuning uchun moliyaviy investitsiyalar resurlari oqimini boshqarish investitsiya faoliyatini boshqarishdagi markaziy masala hisoblanadi.


Investitsiya faoliyatini boshqarish jarayonida sub'yektni uchta izchil bosqichga ajratish mumkin: zarur axborotni yig'ish va to'plash; uni audit va tahlil qilish; boshqaruvga oid investitsion qarorlar qabul qilish.

Bozor munosabatlari sharoitida buxgalteriya hisobi ichki va tashqi foydalanuvchilarga eng muhim ma'lumotlarni etkazib beruvchi vazifasini o'tab,

maqbul boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga ko'maklashadi, bunday qarorlar amalga tatbiq etilishi natijasida korxonaning ishlab chiqarish potentsiali oshadi va raqobat bozorida uning mavqei ko'tariladi. Biroq tezroq boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish, hisobot yuritish tizimida mavjud bo'lgan va buxgalteriya hisobi hisob varaqlarida, hisob registrlari va hisobotlarida aks ettirilgan ma'lumotlarda umuman yetishmaydi.

Buxgalteriya hisobi moliyaviy investitsiyalarni hisob yuritishning mustaqil ob'yekti sifatida ko'radi. Bunday yondoshuv xarajatlarni joriy asosiy faoliyat (ishlab chiqarish va muomala xarajatlari) bilan bog'liq harajatlar va uzoq muddatli qo'yilmalarga bo'lish konsepsiyasiga asoslangan. Investitsion faoliyatni tartibga solib turuvchi normativ va huquqiy hujjatlar tizimi 4-chizmada keltirilgan.

Axborotlar tizimi orqali olingan iqtisodiy ma'lumotlarni muayyan ko'rsatmani vujudga keltiradigan holatga etkazish uchun uni tayyorlash, ya'ni tashlash, tekshirish va qayta ishlash kabi qo'shimcha ishlarni amalga oshirish zarur, bu esa auditorlik faoliyatining asosiy mazmuni va tahlil ishlarining bosqich-laridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, audit tekshiruvidan o'tkazishning maqsadi auditorning moliyaviy hisobot amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq tayyorlangani, buxgalteriya hisobi standartlariga mosligi, undagi ma'lumotlarning haqqoniyligi axborot mavjud bo'lganida ham darhol investitsion qaror qabul qilish mumkin emas. Olingan axborotni chuqur mulohaza qilish yo'li orqali boshqarilayotgan ob'yekt holatini va uning rivojlanish tamoyillarini, amalga oshirilayotgan xo'jalik jarayonlari mohiyatini tushunishga erishiladi. Faqat moliyaviy hisobot ma'lumotlari va boshqaruvning «yuragi»ni tashkil etadigan buxgalteriya hisobining boshqa axborot manbalarini chuqur tahlil qilish yo'li bilangina to'g'ri boshqaruv investitsion qarorini qabul qilish mumkin. Mana shuning uchun ham auditor, moliyaviy hisobot elementlarining haqqoniyligini aniqlagandan so'ng o'z ishini tugallamaydi, balki tahlil ishlarini amalga oshiradi.



### **3-chizma. Investitsion faoliyatni me'yoriy tartibga solish<sup>1</sup>**

Bugungi kunda investitsiyalarni bozor iqtisodiyotiga moslashtirish va investitsion faoliyatni boshqarish o'zgacha yondoshishlarni talab etmoqda. Chunki xo'jalik yuritishning zamonaviy yo'lini tanlash investitsion siyosatni ham tubdan o'zgartirishni talab qiladi. Investitsion siyosatni amalga oshirishda

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan

bozor munosabatlariga mos dastaklardan foydalanish, ya'ni investitsion jarayoni qatnashchilarining huquq va majburiyatlarini belgilab berish; mamlakatda investorlar uchun to'laqonli raqobatni ta'minlash; moliyaviy moddiy va aqliy boyliklarni boshqarishda batamom erkin harakat qilish va shunga tenglashtirilgan tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Mazkur investitsion siyosatni amalga oshirishdagi tadbirlarni to'g'ri yuritilishini ta'minlashda buxgalteriya hisobini zamon talabi darajasida va buxgalteriya hisobining milliy hamda xalqaro standartlari asosida yuritilishini tashkil qilish zarurdir.

Bizga ma'lumki, investitsiyalar- ma'lum davr davomida iqtisodiy foyda ko'rish maqsadida qo'yilgan kapitalni bildiradi. Investitsiyalarning tarkibiy qismi bo'lgan moliyaviy investitsiyalar bu daromad olish va asosiy kapital qiymatini ko'paytirish maqsadida uning tasarrufida qisqa va uzoq muddatli investitsiyalarga ajratilgandir.

Investitsiyalar hisobini zamon talablari va makon amaliyoti talablari darajasida tashkil qilish uchun, avvalo ularni hisobga olishning vazifalari quyidagilardir:

- uzoq va qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalarni hamda ular bo'yicha olingan daromadlarni o'z vaqtida to'g'ri aniqlash;

- uzoq va qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar uchun ajratilgan mablag'larni o'z vaqtida hisobdan chiqarishni ta'minlash;

- moliyaviy investitsiyalarni hisobga olishda BHMA va BXXAlarni keng qo'llash;

- uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalardan olingan daromadlarning korxonalar moliyaviy natijalarida aks ettirilishini ta'minlash;

- moliyaviy investitsiyalardan olingan daromadlardan byudjetga tegishli qismini amaldagi me'yoriy hujjatlarga, soliq kodeksining talabiga muvofiq to'g'ri hisoblashni tashkil qilish, byudjetga tegishli qismini o'z vaqtida o'tkazishni ta'minlash;

-uzoq va qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar hisobiga kelib tushgan mablag'lardan korxonani kengaytirish, rivojlantirish va korxonaga jamoasi ehtiyoji uchun ishlatishni ta'minlash.

Korxonalarda ko'pgina muammolar tug'ilmoqda. quyida ushbu muammolarning ba'zilariga to'xtalib o'tamiz:

1. Qimmatli qog'ozlarni xarid qilishda ishlatiladigan qarz mablag'lari bo'yicha foizlar hisobi.

Schyotlar rejasini qo'llash bo'yicha instruksiyada xarid qilib olingan qimmatli qog'ozlar qiymatiga «xarid qilingan qimmatli qog'ozlarni buxgalteriya hisobiga qabul qilgungacha ularni xarid qilishda ishlatiladigan qarz mablag'lari bo'yicha to'langan foizlar» ham xarid qilingan qimmatli qog'ozlar qiymatiga (tannarxiga) qo'shilishi ko'zda tutilgan. Bunda yuqorida keltirilgan tartibdan quyidagi xulosaga kelish mumkinki, qarz mablag'lari bo'yicha foizlarni xarid qilingan qimmatli qog'ozlar qiymatiga qo'shish uchun, qarz mablag'lari qimmatli qog'ozlarni buxgalteriya hisobida aks ettirgungacha ishlatilishi lozim.

Bu yerda qarz mablag'larining ishlatilishi deyilganda, qimmatli qog'ozlar qiymatining to'lanilishi tushuniladi. Ammo, yuqorida keltirilgan tartibga asosan, agar xarid qilinayotgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha huquqlar ularning to'lovigacha olingan bo'lsa u holda qarz mablag'larining ishlatilishi qimmatli qog'ozlar qiymatiga qo'yilmaydi. Bu xarajatlarning korxonaga foyda va zararlar shotiga olib borilishi to'g'riroq bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlarni xarid qilish uchun olingan qarz mablag'lari bo'yicha foizlar hisobi, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni xarid qilish uchun olingan qarz mablag'lari bo'yicha foizlar hisobi kabi bir xil tartib joriy qilingan.

Yuqorida keltirilgan me'yoriy hujjatlarga asosan, 08 «Kapital qo'yilmalar» schyotining asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga qilingan qo'yilmalariga shu maqsadlar uchun korxonalarining bank krediti bo'yicha to'lanadigan foizlari va boshqa qarz majburiyatlari bo'yicha xarajatlari kiradi.

Bunda asosiy vositalar ob'yektlarini foydalanishga topshirilishi va hisobga olingandan keyin to'langan (hisoblangan) foizlar 9910 «Yakuniy moliyaviy

natijalar» schyotiga olib borilishi yoki boshqa shunga o'xshash manbalardan foydalanish mumkinligi ko'zda tutilgan.

Fikrimizcha qimmatli qog'ozlarni xarid qilishda ishlatiladigan qarz mablag'lari bo'yicha foizlar hisobi, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni xarid qilishdagi qarz mablag'lari bo'yicha foizlar hisobi kabi bir xil tartibda amalga oshirilishi ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar va tashkilotlar uchun to'liq asoslidir, chunki ular tomonidan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish doimiy uchrab turadigan operatsiyalar turiga kirmaydi. Qonunchilikda ya'ni me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda aynan mana shunga urg'u berilgan.

Biroq qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalari aksariyat hollarda ularning asosiy faoliyat turlariga kiradi. Shuni hisobga olgan holda qonunchilikda qimmatli qog'ozlar jarayoni va ularning tannarxini to'g'ri shakllantirish masalalarida ularning, faoliyat turi xususiyatlarini hisobga oluvchi me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. Qimmatli qog'ozlarni hisobdan chiqarishga taalluqli xarajatlarni aks ettirish tartibi.

Bugungi kunda qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilari oldida turgan yana bir muhim masalalardan biri, bu qimmatli qog'ozlarni hisobdan chiqarish bilan bog'liq xarajatlarni soliqqa tortilishining buxgalteriya hisobi hisoblanadi.

Korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobining schyotlar rejasini qo'llash bo'yicha instruktsiyasiga muvofiq qimmatli qog'ozlarning balans qiymati, ularni sotish bahosi hamda boshqa moliyaviy qo'yilmalar 9220 «Boshqa aktivlarni hisobdan chiqarishlar» schyotida aks ettiriladi.

9220 schotning debetida hisobdan chiqarilayotgan qiymatliklarning balans qiymati hamda u bilan bog'liq xarajatlarni aks ettiriladi. Ma'lumki, qimmatli qog'ozlarning vositachilarga to'langan komission mukofot xarajatlarini o'zida aks ettirgan xarid qiymati hisobdan chiqarilishi balansda 9220-«Boshqa

aktivlarni hisobdan chiqarishlar» schyotining debeti va 0600 «Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar» schyotlarida aks ettiriladi. Shunday qilib, qimmatli qog'ozlarni hisobdan chiqarish bilan bog'liq xarajatlarni 9220-«Boshqa aktivlarni hisobdan chiqarishlar» schyotining debetida hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 25 oktyabr №444-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi» Nizomda boshqa turdagi mulk va sotishdan tashqari olingan daromadlar va ushbu operatsiyalar bo'yicha yakuniy moliyaviy natija (foyda yoki zarar) soliqqa tortilishida, moliyaviy natijadan sotilgan maxsulot tannarxi, asosiy vositalar va korxonaning boshqa mulklari va sotishdan tashqari olingan daromadlar va ushbu operatsiyalar bo'yicha xarajatlar chiqarilishi ko'zda tutilgan.

Fikrimizcha xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomda boshqa turdagi mulk realizatsiyasi moliyaviy natijasi tushunchasiga aniqlik kiritilmagan. Yuqorida qayd etilganidek buxgalteriya hisobining schyotlar rejasini qo'llash bo'yicha instruksiyada keltirilishicha, boshqa turdagi mulk realizatsiyasi bo'yicha moliyaviy natijalar tarkibiga uning realizatsiyasi bilan bog'liq xarajatlar ham kiradi. O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasining «Korxonalar va tashkilotlarning byudjetga daromad (foyda) solig'ini hisoblashi va to'lashi tartibi» to'g'risidagi yiriqnomasida boshqa turdagi realizatsiyasidan (Ushbu turga qimmatli qog'ozlar ham taalluqli) olingan foydani (zarar), soliqqa tortishda mulkning boshlang'ich qiymati va sotilgan bahosi o'rtasidagi farq soliq bazasiga qo'shilishi nazarda tutilgan.

Demak, shunday nuqtai nazar ham mavjudki, unga ko'ra yuqorida qayd etilgan instruksiyaga muvofiq qimmatli qog'ozlarning realizatsiyasi bilan bog'liq xarajatlar soliqqa tortilmaydi.

Biroq yo'riqnomaga to'liq amal qilinishiga to'g'ridan-to'g'ri olib borilmaydigan qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisi amalga oshirilishida yuzaga keladigan umumxo'jalik xarajatlarning miqdoriga korxonalar daromad solig'i

bazasi kamaytirilmaydi.

Yuqorida qayd etilganidek, investitsion institutlar tomonidan qimmatli qog'ozlar operatsiyalarining amalga oshirilishi ular faoliyatining asosiysi hisoblanadi. Bular kompaniya ustavida keltirilgan.

Shunday qilib, ba'zi me'yoriy hujjatlar qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining faoliyatini asosiylikini tasdiqlasa, boshqalari esa uni boshqa faoliyat turlari bilan bog'liqligini tasdiqlaydi.

Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilari faoliyatining to'g'ri aniqlanishi-soliq bazasini to'g'ri aniqlash va hisoblash shu jumladan, qimmatli qog'ozlarni hisobdan chiqarish bilan bog'liq xarajatlarning hisobi uchun, hamda asosiy faoliyat bilan bog'liq umumxo'jalik xarajatlarini to'g'ri hisoblash uchun kerakli sharoitdir.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, yuqorida sanab o'tilgan holatlarning kelib chiqishiga asosiy sabab qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining faoliyatini soliqqa tortish bo'yicha tartibning yo'qligidir. Amaldagi qonunchilikda professional ishtirokchilarning statusi belgilanmagan, ya'ni qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilari soliq qonunchiligi va buxgalteriya hisobining mustaqil sub'yektlari hisoblanmaydi. Ular tomonidan amalga oshirilayotgan asosiy faoliyat (qimmmatli qog'ozlar oldi-sotdisi) qonunchilikda ba'zi hollarda boshqa faoliyat turiga olib borilgan.

Qonunchilikdagi keltirilgan bunday qarama-qarshiliklar eng kamida ikkilamchi hisobni yuritishni taqozo etadi: buxgalteriya va soliq hisobi. Bunday hisobda investitsiya kompaniyalari barcha faoliyatidan soliq to'lab, bunda o'z faoliyatini amalga oshirishidagi xarajatlarni hisobga olisha olmaydi, hamda ba'zi zararlar mavjudki, ular bilan fond bozorida normal faoliyat yuritish murakkab hisoblanadi.



## **II BOB. MILLIY STANDARTLAR ASOSIDA MOLIVAVIY INVESTITSİYALAR HISOBINI TASHKIL QILISHNING HOZIRGI HOLATI**

### **2.1. Moliyaviy investitsiyalar hisobini yuritish tartibi**

O'zbekistonda ro'y berayotgan iqtisodiyotni modernizatsiyalash qimmatli kog'ozlarga bo'lgan qiziqishni qayta uyg'onishiga sabab bo'ladi. Qimmatli qog'ozlarning turli bozori shakllandi va rivoj topdi.

Mulkchilik turli shaklidagi korxonalarda qimmatli qog'ozlarning buxgalteriya hisobi bo'yicha muomalalar yagona (umumiy) tamoyillar asosida amalga oshirilishi lozim. Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalarning hisobi qimmatli qog'ozlarning qoplanish muddati, ularning turi (iqtisodiy mazmuni), hisob-kitob shakllari, qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun manba va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

21-son «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlarining rejasi» BHMS ga muvofiq 0600 "Uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar" schyotida mamlakatimizda va undan tashqarida barpo etilgan korxonalarining qimmatli qog'ozlarga, sho''ba, qaram bo'lgan jamiyatlarning hamda chet el sarmoyali korxonalarining nizom kapitali (jamg'armasi) ga uzoq muddatli qo'yilmalar (investitsiyalar) ni mavjudligi va harakati to'g'risidagi ma'lumot quyidagi hisobvaraqlaridan kelib chiqib umumlashtiriladi:

0610- "Qimmatli qog'ozlar";

0620- "Sho''ba korxonalariga investitsiyalar"

0630- "Qaram birlashmalarga investitsiyalar"

0640- "Qo'shma korxonalariga investitsiyalar"

0690- "Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar".

0610-"Qimmatli qog'ozlar" schyotida aksionerlik jamiyatlarining aktsiyalari, obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari (opcion, fyuchers va

boshqalar) ga uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarning mavjudligi va harakati aks ettiriladi.

0620 – «Sho’’ba korxonalariga investitsiyalar», 0630 – «Qaram birlashmalarga investitsiyalar» schyotlarida mos ravishda sho’’ba, qaram va qo’shma korxonalariga investitsiyalarning mavjudligi va harakati aks ettiriladi.

0690 – «Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar» schyotida kelajakda moliyaviy daromad olish maqsadida korxonaning davlat korxonasiga, xayriya yoki ekologiya tashkilotlariga investitsiyalarning mavjudligi hisobga olib beriladi.

Bu schyotlar aktiv bo’lib, debetidagi qoldiqlar har oying boshiga korxonadan sotib olingan qimmatli qog’ozlar qiymatini ifodalaydi. Debet tomonidagi oboroti oy davomida sotib olingan qimmatli qog’ozlar qiymatini, investitsiya uchun sarflangan mablag’lar miqdorini, kredit tomonidagi oborotlar hisobdan chiqarilgan sotib yuborilgan, qaytarib berilgan qimmatli qog’ozlar qiymatini yoki investitsiyalarning uzilishini aks ettiradi.

Aktivlarni investitsiyalar qatoriga qo’shish tartibi va ularning turlari 12-son «Moliyaviy investitsiyalar hisobi», 8-son «Konsolidatsiyalashtirilgan (umumlashtirilgan) moliyaviy hisobotlar va sho’’ba xo’jalik jamiyatlariga investitsiyalar hisobi» O’zbekiston Respublikasining BHMSlari orqali tartibga solinadi.

0600 «Uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar» schyoti bo’yicha analitik hisob uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar va ular joylashtirilgan ob’ektlar (qimmatli qog’ozlarni sotuvchi korxonalar va boshqa korxonalarni qatnashchilari orasida bo’lgan korxonalar va h.k.) turlari bo’yicha amalga oshiriladi. Bu holatda analitik hisobni tashkil etish mamlakatimiz hududi moliyaviy investitsiyalar to’g’risidagi ma’lumotlarni olish imkoniyatini tanlab berishi kerak.

Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar – o’zida muomala muddati 12 oydan oshmaydigan, engil sotiladigan moliyaviy investitsiyalarning xarid

qilinishiga oid investitsiyalardir. Ularning statistik hisobi 5800 – «Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar» schyotida yuritiladi. Ushbu schyot muddatli bo'lib, xo'jalik yurituvchi subektlarning investitsiyalarni, ya'ni boshqa bir korxonalarining qimmatli qog'ozlari, foizli davlat va maxalliy obligatsiyalari, shuningdek, bir korxonaning boshqa korxonaga bergan qarzlarning xolati va harakati to'g'risidagi ma'lumotlari umumlashtirish uchun xizmat qiladi. Ushbu schyot foizli obligatsiyalarga investitsiyalar va shu kabi qimmatli qog'ozlar, shuningdek, boshqa korxonalariga berilgan qarzning holati va harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish uchun xizmat qiladi.

Agarda foizli obligatsiyalarga investitsiyalar va shu kabi qimmatli qog'ozlar, shuningdek, boshqa korxonalariga berilgan qarzlarni qaytarish muddati bir yildan oshmasagina, bu investitsiyalar 5800-«Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar» schyotida hisobga olib boriladi. Bundan tashqari qaytarish muddati ko'rsatilmagan boshqa qimmatli qog'ozlar uchun investitsiyalar, agar ulardan daromad olish mo'ljali bir yildan ortiq bo'lmasa ham korxonalar 5800- «Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar» schyotida statistik hisobini olib boradilar.

Schyotlar rejasiga muvofiq ushbu schyot bo'yicha quyidagi schyotlar ochilishi mumkin:

5810 – «Qimmatli qog'ozlar»

5830 – «Berilgan qisqa muddatli qarzlarni»

5890- «Boshqa joriy investitsiyalar».

Korxonalarda 5810- «Qimmatli qog'ozlar» schyotida aktsiya, davlat va maxalliy zayomlarning foizi obligatsiyalarga bir yildan kam muddatga qilingan investitsiyalarning holati hisobiga olib boriladi.

Korxonalar daromadli va barqaror faoliyat yurituvchi boshqa bir korxonalar aktsiya yoki obligatsiyalarni bir yildan kam muddatga xarid qilganda 5810- «Qimmatli qog'ozlar» schyoti rag'batlanib, 5110 – «Hisob-kitob» schyoti,

5210- «Valyuta schyoti» yoki boshqa material va har xil qiymatliklarni hisobga oluvchi schyotlar kreditlanadi.

Ushbu qimmatli qog'ozlarni sotish va qayta sotish jarayonida 9220- «Bank aktivlarini sotilishi va turli chiqimi» schyoti debetlanib, 5810 – «Qimmatli qog'ozlar» schyoti kreditlanadi.

5830 –«Berilgan qisqa muddatli qarzlari» schyotida korxonalarining boshqa bir korxonaga bergan qisqa muddatli qarzlarning harakati hisobiga olinadi.

Ushbu berilgan qarzlarga quyidagicha: debet 5830- «Berilgan qisqa muddatli qarzlari» schyot, kredit 5110- «Hisob-kitob schyoti» yoki boshqa schyotlar yozuvi beriladi.

Korxonalar bergan qarzlari qaytarib berilganda 5110- «Hisob-kitob schyoti» debetlanib, 5830 - «Berilgan qisqa muddatli qarzlari» schyoti kreditlanadi. 5890-«Boshqa joriy investitsiyalar» schyotida korxonalarining mamlakat va chet el valyutalarida omonat sertifikatlari, banklardagi depozit schyotlariga qilingan investitsiyalarning va boshqa joriy investitsiyalarning harakati hisobiga olinadi. Korxonalarda 5800-»Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar» schyoti bo'yicha analitik hisob investitsiyalar va ob'ektlarning turlari bo'yicha ya'ni sotib olingan qimmatli qog'ozlar turlari va ularni chiqargan korxonalar bo'yicha yuritiladi.

Masalan, korxonalar 5810- «Qimmatli qog'ozlar» schyotida alohida «Davlat obligatsiyalari» maxalliy zayom obligatsiyasi», «Korxonalar obligatsiyasi», shuningdek aktsiyaning turlari bo'yicha «Oddiy aktsiyalar» va «Imtiyozli aktsiyalar» uning ob'ektlari ochib, ularning harakatini hisobga oladilar. 5830- «Berilgan qisqa muddatli qarzlari» schyotida analitik hisob qarzlarni olgan korxonalar bo'yicha berilgan qarzni qaytarib olish muddatlari bo'yicha yuritiladi.

**1-jadval****5800 – «Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar» schyoti bo'yicha schyotlar korrespondentsiyasi**

№	Xo'jalik muomalalarning mazmuni	Schyotlar korespondentsiyasi	
		Debet	Kredit
1.	Asosiy vositalarni berish hisobiga qimmatli qog'ozlarning qabul qilinishi	5810	9210
2.	Nomoddiy aktivlarni berish hisobiga qimmatli qog'ozlar qog'ozlarning qabul qilinishi.	5810	9220
3.	Qimmatli qog'ozlarni ularning qiymatini hisob-kitob va valyuta schyotlaridan to'lash orqali xarid qilinishi.	5810	5110, 5210 5220
4.	Qimmatli qog'ozlarning naqd pul hisobiga xarid qilinishi	5810	5010
5.	Qimmatli qog'ozlarning sotilishi	5110	5810
6.	Boshqa korxonalaridan qisqa muddatli qarzlarning qaytarilishi.	5110	5830
7.	Mol etkazib beruvchilardan bo'lgan qarzning qimmatli qog'ozlarni berish hisobiga uzilishi	6010	5810

Korxonalarda ochilgan analitik schyotlar mamlakat hududidagi va chet eldagi qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar to'g'risidagi ma'lumot olish imkonini berish kerak.

**2.2. Milliy standartlar asosida investitsiyalarni baholash tartibi**

Aktsiyalar, obligatsiyalar va unga o'xshash qimmatli qog'ozlar 0610 "Qimmatli qog'ozlar" schyotining debeti bo'yicha sotib olingan qiymatida hisobiga olinadi va qimmatli qog'ozlar hisobiga olingan avvalgi schyotlari kreditida ularning hisobiga berilgan qiymatliklar aks ettiriladi. Korxonada tomonidan uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar uchun mablag'lar o'tkazilsa, lekin hisobot davrida korxonaga ularga egalik huquqini beruvchi tegishli hujjatlar (aktsiyalar, obligatsiyalar, boshqa korxonalariga o'tkazilgan qo'yilmalar summasi guvohnomalar va boshqalar) olinmasa, bular 0610 "Qimmatli qog'ozlar" schyotida alohida ko'rsatiladi. Agarda, korxonalar tomonidan sotib olingan aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa shunga o'xshash qimmatli qog'ozlar to'liq qiymati nominal qiymatidan yuqori bo'lsa, u holda har safar ularga to'g'ri keladigan daromad hisoblanganda harid qilish va nominal qiymatlar orasidagi farqi quyidagicha buxgalteriya yozuvlari orqali hisobdan chiqariladi:

Debet 0690- «Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa harajatlar»,

Kredit 0610 -«Qimmatli qog'ozlar».

Agarda, korxonada tomonidan xarid qilingan obligatsiyalar va boshqa shunga o'xshash qimmatli qog'ozlarning xarid qiymati ularning nominal qiymatidan past bo'lsa, u holda har safar ularga daromad hisoblanganda harid qilish va nominal qiymatlar orasidagi farqning bir qismi qayta hisoblanadi (to'ldiriladi) va quyidagicha buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:

Debet 0610- «Qimmatli qog'ozlar»,

Kredit 9590- «Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa daromadlar».

Qimmatli qog'ozlar daromad hisoblanganda (olinadigan daromad miqdorida) buxgalteriya hisobidan quyidagicha aks ettiriladi:

1. Obligatsiyalar uchun olinadigan foizlar:

Debet 4830- «Olinadigan foizlar»,

Kredit 9530- «Foiz ko'rinishidagi daromad».

2. Aktsiyalar uchun olinadigan dividendlar:

Debet 4840 –«Olinadigan dividendlar»,

Kredit 9520- «Dividend ko'rinishidagi daromad»

Qimmatli qog'ozlarga dividend hisoblanganda xalqaro moliyaviy hisobotlar standartlarga muvofiq ikkita usuldan foydalanish mumkin:

1. Qiymat usuli. Ushbu usul qo'llanganda. Investor o'z mablag'ini boshqa korxonaga dastlabki qiymati bo'yicha qo'yadi. Uning asosiy tamoyilari shundan iboratki, investitsiyalar qiymati sho''ba tizimlarining moliyaviy ahvolidan qat'iy nazar o'zgarmaydi, ulardan olinadigan dividendlar bosh jamiyat daromadi sifatida hisobga olinadi.

Bu usulni quyidagi hollarda qo'llash tavsiya etiladi:

- sho''ba jamiyatini keyinchalik yaqin kelajakda sotish uchun olingan va uni nazorat qilish ham vaqtinchalik bo'lganda;

- sho''ba jamiyati uning bosh jamiyatiga mablag' o'tkazish qobiliyatini jiddiy darajada kamaytirilgan belgilangan uzoq muddatli muhim sharoitlar

doirasida faoliyat yuritganda. Masalan, sho''ba jamiyatiga qarz bergan tashkilot tomonidan quyiladigan dividendlarni to'lashda cheklashlar mavjud bo'lishi mumkin.

2. Ulushbay ishtirok usuli. Bu usulni bosh jamiyat tomonidan sho''ba jamiyatiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazish va nazorat qilish hollarida qo'llash tavsiya qilinadi, u quyidagilardan iborat:

- investitsiyalarning joriy qiymati sho''ba jamiyatining xo'jalik faoliyati natijalariga bog'liqlikda o'zgaradi: u foyda olganda investitsiyalar qiymati oshadi, zarar esa kamayadi;

- bosh jamiyat investitsiyalardan foydani egalik ulushiga munosib ravishda aks ettiriladi: uning sho''ba jamiyatidagi ulushi qancha ko'p bo'lsa, bosh jamiyat balansida investitsiyalar qiymati shuncha ko'p summaga oshiriladi;

- olingan dividendlar daromad sifatida qaralmaydi, balki investitsiyalar qiymatini kamaytirish tarzida ifodalaydi.

Misol. «1-Avtokorxonona» OAJ (bosh jamiyat) sho''ba jamiyatining aksiyalarini 60 foizini 28000 ming so'm nominal qiymati bo'yicha sotib oladi va buxgalteriya hisobidan quyidagicha yozuvlarni amalga oshiradi:

Debet 0620 -«Sho''ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar» - 28000 ming so'm

Kredit 5110- «Hisob-kitob raqami» - 28000 ming so'm

Hisobot yili tugagach, sho''ba jamiyati 4400 ming so'm sof foyda oladi va u bosh jamiyat nazoratida bo'lganligi bois investitsiyalar qiymatining oshganligini hamda daromad summasini egalik ulushiga munosib ravishda,  $(4400 \times 60 \%)$  2640 ming so'mni buxgalteriya hisobidan quyidagicha aks ettiradi:

Debet 0620- «Sho''ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar»- 2620 ming so'm

Kredit 9590- «Moliyaviy faoliyatidan boshqa daromadlar» -2620 ming so'm.

Mazkur muomaladan so'ng investitsiyalarning balans qiymati 30620 (2800+2620) ming so'm, ya'ni, sho''ba jamiyatining foydasi darhol bir tomondan – investitsiyalar qiymatining oshishi, boshqa tomondan – bosh jamiyatning daromadi sifatida aks ettiriladi. Bunda o'ziga yarasha mantiq bor: sho''ba jamiyati bosh jamiyat nazoratida bo'ladi, uning ruxsatisiz bu foydani ishlatib bo'lmaydi, shuning uchun sho''ba jamiyati tomonidan ishlab topilgan foyda bosh jamiyat daromadi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, sho''ba jamiyatidan olingan dividendlarni bosh jamiyatga daromad sifatida aks ettirib bo'lmaydi, aks holda bir daromad ikki marta ifodalangan bo'ladi. Bunda dividendlar investitsiyalarning kamayishi (qaytishi) sifatida e'tirof etiladi.

Faraz qilaylik, sho''ba jamiyati dividendlar sof foydaning 50 foizi miqdorida, ya'ni 2200 ming so'm to'lash haqida ma'lum qiladi. Bu holatda bosh jamiyat o'zining ulushiga mutanosib ravishda-mazkur summasining 60 foizini olishi va buxgalteriya quyidagicha aks ettirilishi lozim:

Debet 4840- «Olingan dividendlar»- 1320 ming so'm

Kredit 0620- «Sho''ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar» 1320 ming so'm.

Bu muomalalardan keyin investitsiyalarning balans qiymati 29300 (30620-1320) ming so'mni tashkil qiladi. Ya'ni, ulushbay ishtirok usuli bo'yicha sho''ba jamiyatiga investitsiyalar hajmi sho''ba jamiyat olgan foyda (zarar) ning tegishli ulushini undan olingan dividendlarni ayirgan holda vaqti-vaqti bilan uzatib boriladi. Bizning fikrimizcha, ushbu usul bizning iqtisodiyotimizda qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yuqorida ko'rsatilgan ikkala holatda: qimmatli qog'ozlar bo'yicha korxonaga tegishli bo'lgan daromadni hisoblashda hisobdan chiqariladigan xarid va nominal qiymat o'rtasidagi farq umumiy farq summasidan va qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromad to'lashning belgilangan muddatlaridan kelib chiqib aniqlanadi; qimmatli qog'ozlarni so'ndirish (sotib olish) muddatiga:



1) Qiymat usulida ularning 0610- «Qimmatli qog'ozlar» schyotida bahosi milliy standartlarga asosan nominal qiymatiga xalqaro standartlarga asosan eng past qiymatga to'g'ri kelish kerak.

2) Ulushbay ishtirok usulida ularning 0610- «Qimmatli qog'ozlar» schyotidagi bahosi xalqaro standartlarga asosan balans qiymatiga to'g'ri kelishi kerak. Uzoq muddatli investitsiyalarni so'ndirilishi (sotib olinishi) va sotilishi quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 9220- «Boshqa aktivlarni hisobdan chiqarish»,

Kredit 0600- «Uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar» (tegishli schyotlari bo'yicha).

Aktivlarni qayta baholash natijasida tashkil qilinadigan zaxira kapitalini yaratish va to'ldirib borish 8510- «Mulknii qayta baholash bo'yicha tuzatishlar» schyotining krediti bo'yicha qayta baholash natijasida qiymatning o'sishi aniqlangan aktivlarning schyotlari bilan korrespondenttsiyalanib aks ettirilishi maqsadga muvofiqdir. Biroq, yuqorida ta'kidlanganidek uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarning balans qiymati ularning sotilish vaqti kelguncha nominal qiymatiga teng bo'lishi lozim. Demak, uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarning qiymatini nominal bahosi keltirish uchun ularning balans qiymati ko'payishi (kamayishi) 9560- «Qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan daromad», 9690- «Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa sarflar» schyotlari bilan korrespondenttsiyalanadi.

Qayta sotish uchun xarid qilingan qimmatli qog'ozlarni sotishdan tushgan tushum 9220- «Boshqa aktivlarni hisobdan chiqarishlar» schyotlarining debeti uzoq muddatli investitsiyalarni hisobiga olish schyotlarining krediti bilan korrespondenttsiyalanadi.

21- sonli «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlarining rejasi» buxgalteriya hisobining Milliy standartiga muvofiq, bizningcha 5810- «Mulknii qayta baholash bo'yicha

tuzatilishlar» schyotida qayta baholash natijalari bo'yicha aniqlanadigan qimmatli qog'ozlar qiymatini o'sishi hisobiga olinishi kerak.

Bundan tashqari 12-son «Moliyaviy investitsiyalarni hisobi» BHMS ning 21-bandiga muvofiq «uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni qayta baholash natijasida paydo bo'lgan qo'shimcha miqdor xususiy kapitalda aks ettirilgan o'sha investitsiyalarni oldingi baholash qiymati hisobidan amalga oshiriladi. Agar moliyaviy investitsiyalar qiymatini kamayishi miqdori, ilgari qayta baholashdan olingan daromad miqdoridan ko'p bo'lsa bu tafovut harajat sifatida hisobga olinishi lozim. Qiymati pasaytirilgan investitsiyalarni qo'shimcha baholash miqdori, mazkur investitsiyalardan kelgan zarar qoplangandan so'ng, xususiy kapital ko'payishiga kiritiladi».

Shularni hisobga olganda yuqorida ifodalangan 21-sonli «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisob-varaqlarning rejasi» BHMS dagi 0610 «Qimmatli –qog'ozlar» va 8510-«Mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar» va 12-sonli «Moliyaviy investitsiyalarni hisobi» BHMS orasidagi mutanosibliklarni bartaraf etish uchun ushbu me'yoriy hujjatlarga bizning fikrimicha quyidagi o'zgartirish kiritilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi:

21- sonli «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlarining rejasi» BHMS ning 6 paragrifi 0600 «Uzoq muddatli investitsiyalarni hisobi schyotlari» schyotining 59- moddasida keltirilgan.

## 2-jadval

### **Moliyaviy investitsiyalarni baholash va buxgalteriya hisobida aks ettirish bo'yicha 21-son BHMSni takomillashtirish**

<b>Amaldagi 21 sonli BHMS ning 59 moddasiga muvofiq</b>	<b>Taklif qilinadi</b>
-agar, korxonada tomonidan sotib olingan aktsiya, obligatsiya va shunga o'xshash boshqa qimmatli qog'ozlarni nominal qiymatidan yuqori bo'lsa, u holda sotib olishdan so'ndirish vaqtincha bo'lgan davrda	-investitsiyalar sotib olish qiymati, qayta baholash qiymati yoki investitsiya portifeli usuli bo'yicha tan olingan sotib olish va bozor qiymatlarining eng kam bo'yicha hisobga olinadi. -investitsiyalar qayta baholash natijasida

<p>sotib olish va nominal qiymat o'rtasidagi farq hisobidan chiqariladi. Bunda, quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:          Debet 9690 «Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa harajatlar»,          Kredit 0610 «Qimmatli qog'ozlar».</p> <p>-agar, korxonada tomonidan sotib olingan aktsiya, obligatsiya va shunga o'xshash boshqa qimmatli qog'ozlar ularni nominal qiymatidan past bo'lsa, u holda sotib olishdan so'ndirish vaqtigacha bo'lgan davrda sotib olish va nominal qiymat o'rtasidagi farq qo'shib hisoblanadi.</p> <p>Bunda, quyidagicha buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:          Debet 0610 «Qimmatli qog'ozlar»,          Kredit «Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa daromadlar».</p> <p>-yuqoridagi ikkala holatda ham qimmatli qog'ozlarni so'ndirish vaqtida ularni bahosi 0610 «Qimmatli qog'ozlar» hisob-varag'idagi nominal qiymatiga mos bo'lishi kerak.</p>	<p>olingan summa buxgalteriya hisobidan qayta baholashdan olingan daromad sifatida quyidagicha aks ettiriladi:          Debet 0610 «Qimmatli qog'ozlar»,          Kredit 8510 «Mulknini qayta baholash bo'yicha tuzatishlar».</p> <p>-investitsiyalarni qiymati pasayganida, kamayish summasi xususiy kapitalda aks etgan o'sha qayta baholashdan olingan summa hisobidan amalga oshiriladi (qoplanadi) va buxgalteriya hisobidan quyidagicha aks ettiriladi:          Debet 8510 «Mulknini qayta baholash bo'yicha tuzatishlar»,          Kredit 0610 «Qimmatli qog'ozlar».</p> <p>-daromadni pasayish summasi qayta baholashdan olingan daromad o'sha, ular o'rtasidagi farq moliyaviy faoliyat bo'yicha harajatlar sifatida tan olinadi va quyidagicha buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:          Debet 9690 «Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa harajatlar»,          Kredit 0610 «Qimmatli qog'ozlar».</p> <p>- investitsiyalar navbatdagi qayta baholashda ularni qiymati pasaysa, qayta baholash summasiga quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:          Debet 0610 «Qimmatli qog'ozlar»,          Kredit 9690 «Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa harajatlar»- oldingi aks ettirgan harajatlar summasiga, Kredit 8510 «Mulknini qayta baholash bo'yicha tuzatishlar» - baholashning qolgan summasiga.</p>
--	---

21-sonli «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlarining rejasi» BHMS ning 6 paragrafi 0600 «Uzoq muddatli investitsiyalarni hisobi schyotlari» schyotining 60-moddasida keltirilgan 11-buxgalteriya o'tkazmasdan keyin quyidagi o'tkazmalarni keltirishini taklif etamiz:

Ushbu BHMSga o'zgartirishlarni sabab, 12-sonli «Moliyaviy investitsiyalar hisobi» BHMS to'la xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga mos kelishi va bu standartga o'zgartirishlar kerak emasligidan kelib chiqadi.

Yuqorida keltirilgan o'zgartirishlarni 21-sonli «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlarining rejasi» BHMS ga kiritilgan taqdirda ushbu standartning 59, 60, 351 va 355-moddalarida hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan mutanosibliklar bartaraf etiladi va 59 va 60 moddalar 12- sonli «Moliyaviy investitsiyalar hisobi» BHMS ning 21-moddasiga mos keladi degan fikrdamiz.

### **2.3. Sho''ba jamiyatlariga yo'naltirilgan investitsiyalarni baholash xususiyatlari**

Birlashtirilayotgan jamiyatlar hisobdorligining tegishli moddalarini jamlash natijasida olingan jamlangan balans umumlashtirilgan balansni tuzishning asosi hisoblanadi. Biroq, ushbu jamlangan balans Bosh va sho''ba korxonalarini guruxining mulkiy ahvolini aniq aks ettirmaydi. Chunki, uning ko'pgina moddalari qayta hisoblashni o'z ichiga oladi, yoki Birlik nazariyasi nuqtai nazaridan ba'zi bir moddalarni g'ayri qonuniy aks ettirish hisobidan "bo'rttirilgan". Ushbu muammolar o'z ichiga quyidagi tarkibiy qisimlarni oladigan umumlashtirilgan balansni tuzishda hal etiladi:

- kapitallarni umumlashtirish;
- «majburiyatlar»ni birlashtirish.

Jamlangan balansda bosh korxonaning sho''ba jamiyati kapitalidagi ishtiroki kabi, sho''ba jamiyatining shaxsiy kapitali ham aks ettiriladi, ya'ni u o'z ichiga istisno qilinishi lozim bo'lgan qayta hisoblashni oladi. Buning uchun kapitallarni umumlashtirish davomida bosh korxonada balansida u yoki bu jamiyatda ishtirok etish qiymati va sho''ba jamiyati shaxsiy kapitalidagiunga tegishli ulush taqqoslanadi. Ular bir-biri bilan qayta hisoblashadi va shu tarzda qayta hisoblash istisno qilinadi.

Kapitallarni umumlashtirish yangi sho''ba jamiyatidagi ulush u yoki bu uslubda sotib olingan bo'lsa yoki u yoki bu jamiyat boshqa sabablarga ko'ra oxirgisining tavsifiga javob bersa amalga oshiriladi. Umumlashtirish nazariyasi bunga olib keladigan va bosh korxonaning sho''ba jamiyatidan ulushni turli

yo'llar bilan sotib olishga asoslangan ikkita asosiy yo'lni ko'zda tutadi. Ulushni sotib olish usullaridan qat'iy nazar kapitallarni umumlashtirish ikki uslubdan birida amalga oshiriladi:

1. Sotib olish uslubi (aktsiyalar paketini sotib olish) (purchase-method) yoki,
2. Birlashtirish uslubi (manfaatlarni birlashtirish) (poling-of-interests-method).

Birinchi uslub- *sotib olish uslubi* bosh korxonaga yoki boshqa sho'ba jamiyati tomonidan birorta jamiyatda ishtirok ulushini sotib olish jarayonini nazarda tutadi. Bu jarayon mulkchilik huquqi berish va odatda (biroq, hamma vaqt emas) yangi sotib olingan ulush haqqini avvalgi egasiga to'lash hamda pul mablag'larining Bosh va sho'ba korxonalariga guruxi tashqarisiga ketishi bilan bog'liq bo'ladi.

Ikkinchi uslub- *birlashtirish uslubi* ikki yoki undan ko'p jamiyatlarni birlashtirishda, sotuvchi va sotib oluvchi o'rtasida ulushlar bilan o'zaro almashishda foydalaniladi. Bunda sotib oluvchini aniqlab bo'lmaydi, jamiyatlarning o'zaro ishtiroki esa operatsiya natijasi hisoblanadi. Bir jamiyat birinchi holatdagidek, boshqasini sotib olmasligi ushbu uslubni qo'llash uchun dastlabki shart hisoblanadi va bunda mulkchilik munosabatlar tuzilmasi o'zgarmaydi.

Birinchi uslub- sotib olish uslubi foydalanish uchun asosiy uslub hisoblanadi. Chunki, odatda sho'ba jamiyatini sotib olish jarayoni natijasida nazorat qilish imkoniga ega bo'ladi. Ikkinchi uslub esa birinчисiga muqobil hisoblanmaydi, u juda kam va faqat qat'iy belgilangan holdagina, ya'ni ma'lum bir qat'iy shartlar va cheklanishlarni bajarishda qo'llaniladi.

BHXSga muvofiq ular quyidagilar:

- ✓ Birlashayotgan korxonalarining ko'pchilikni tashkil qiladigan qismi yoki barcha ovoz berish huquqiga ega aktsiyalari (ulushlar) almashinadi yoki qo'shiladi;
- ✓ Har ikkala jamiyatning bozor qiymati bir-biridan farq qiladi;

✓ Har bir jamiyat ishtirokchilari birlashganidan so'ng bir-biriga nisbatan umumlashtirilayotgan iqtisodiy birlikdagi ovozlar soni yoki kapital ulushiga nisbatan tenglikni saqlab qoladi.

Bunda shartlardan birortasi bajarilmasa, birlashtirish uslubini qo'llashning imkoni bo'lmaydi va sotib olish uslubidan foydalaniladi. Aynan mana shuning uchun ko'pchilik hollarda sotib olish uslubidan foydalaniladi.

Ta'kidlaganidek, xarid qilish uslubidan agarda sho''ba jamiyati sotib olinsa foydalaniladi. Buning natijasida bosh korxonani nazorat qilish imkoniga ega bo'ladi. Bunda kapitallarni umumlashtirish davomida hal qilinishi lozim bo'lgan bir qancha masalalar paydo bo'ladi:

- ✓ Sotib olish qiymatini aniqlash;
- ✓ Firma bahosini aniqlash va aks ettirish;
- ✓ Sho''ba jamiyatining shaxsiy kapitalidagi shu narxda sotib olingan ulushni aniqlash;
- ✓ Kelgusi davrlarda kapitallarni umumlashtirish;
- ✓ Ozchilik ulushni aks ettirish va hakoza.

Xarid qilish qiymati u bilan bog'liq barcha zararlar summasidan jamlanadi. Biroq, jamiyat «qarzga» sotib olinsa, ya'ni bosh korxonani sotib olinayotgan jamiyatning barcha qarzlarni o'z zimmasiga olsa qo'shimcha qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bunday vaziyatda odatda kreditorlarga to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'lari summasi sotib olish qiymatiga aylanadi. Ulushni boshqa ob'ekt yoki qimmatli narsalarga almashtirish yo'li bilan sotib olinsa, sho''ba jamiyatini sotib olish paytidagi bozor qiymati sotib olish qiymatiga aylanadi. Bunda ushbu bozor qiymati hujjat asosida tasdiqlanishi va asoslanishi kerak.

Kapitallarni bevosita umumlashtirishga kelsak, ushbu uslubning ikkita asosiy turi mavjud. Birinchi uslub manfaatlar nazariyasida asoslangan va Amerikaning GAAP andozalariga muvofiq foydalanish uchun yagona bo'lgan yangi baholash uslubidir. Ikkinchi uslub –manfaatlar nazariyasiga balansli baholash uslubidir.

Majburiyatlarni umumlashtirish shunday jarayonki, uning davomida Bosh va sho''ba korxonalari guruhi jamiyatlarining bir-biriga nisbatan qarzdorlik xususiyatiga ega barcha munosabatlar va ularning natijalari yo'qotilishi lozim. Chunki unda Bosh va sho''ba korxonalari guruhining mulkiy holati noto'g'ri tasavvur qilinadi. Majburiyatlarni umumlashtirish, birinchi navbatda Bosh va sho''ba korxonalari guruhi jamiyatlarining bir-biriga nisbatan debitorlik, kreditorlik qarzlari, bir biriga berilgan zaym va kreditlar, avans to'lovlari, qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalar, kelgusi davrlarning yuzaga kelgan xarajat va daromad bandlari hamda Bosh va sho''ba korxonalari guruhi ichidagi munosabatlari natijasida yaratilgan zaxiralariga aloqador. Barcha mazkur ko'rsatkichlar majburiyatlarni umumlashtirish jarayonida bir-biri bilan qayta hisoblanadi va umumlashtirilgan hisobotga kiritilmaydi.

Yuqorida Sho''ba jamiyatlariga qo'llaniladigan to'liq umumlashtirishning tarkibiy qismlari ko'rib chiqildi. Avval ta'kidlanganidek birgalikda nazorat qilinadigan jamiyatlar va birgalikdagi faoliyatning umumlashtirilgan hisobotga kiritilishi mos ravishda umumlashtirish uslubidan foydalanish vositasida amalga oshiriladi. Bu uslub tarkibi va tartibiga ko'ra to'liq umumlashtirish uslubiga o'xshash hamda quyidagilar bilan farqlanadi:

- birgalikda nazorat qilinadigan jamiyatning mol-mulki va majburiyatlari, xarajat va faoliyat natijalari umumlashtirishning birinchi bosqichida bandma-band va chiziqli qo'shishda to'liq hajmda emas, tegishli jamiyatda Bosh va sho''ba korxonalari guruhining ulushiga mos hajmda hisobga olinadi;

- kapitallarni umumlashtirish uchun xarid uslubi qo'llanadi, ayni paytda ko'shilish uslubiga yo'l qo'yilmaydi;

- ozchilik ulushi hisobga olinmaydi va aks ettirilmaydi (bu balans va yangi qiymat uslublari bir-biriga mos kelishiga olib keladi).

Majburiyatlarni, oraliq natijalarni, daromad va xarajatlarni umumlashtirish to'liq umumlashtirishga o'xshab, ammo mos ravishda amalga oshiriladi. Bosh kompaniyaning Bosh va Sho''ba korxonalari guruhining u yoki bu jamiyatiga ta'siri darajasiga asoslangan bosqichli kontseptsiyaga muvofiq,

keyingi bosqich Bosh va Sho''ba korxonalari guruhi hisobdorligiga Equity uslubi yordamida qo'shiladigan bog'liq jamiyatlardir.

Mazkur uslubning asosiy xislati shundan iboratki, to'liq va mos ravishda umumlashtirish uslubidan farqli o'laroq, alohida jamiyatning hisobdorligidan mol-mulk va majburiyatlar, daromad yoki xarajatlar Bosh va Sho''ba korxonalari guruhi hisobdorligiga kiritilmaydi. Unda faqat ishtirok qiymatining «rivojlanishi» (inglizcha- Equity) - bog'liq jamiyatning o'z kapitaliga, bosh kompaniyaning ishtirok ulushiga mos ravishda aks etadi. Equity qiymatini aniqlash uchun (to'liq umumlashtirishdagi kapitallarni umumlashtirishga o'xshash tarzda) ikki uslub qo'llanishi mumkin: *balans* va *mos qiymat uslublari* (qiymat bahosiga nisbatan bu kapitallarni umumlashtirishdagi yangi qiymat uslubiga to'g'ri keladi). Bu uslublar turli natijalarga olib kelishi mumkin.

Balans qiymati uslubi ishlatilganda Equity qiymati birlamchi umumlashtirishda bog'liq jamiyatga katta ta'sir ko'rsatayotgan jamiyat balansida ifodalangan qiymatga ko'ra, ya'ni xarid qilish qiymatiga ko'ra belgilanadi. Ayni paytda, to'liq umumlashtirishdagi kabi ishtirokning balans qiymati bog'liq jamiyatning o'z kapitalining tegishli qismi bilan tenglashadi. Ular o'rtasidagi farq yashirin zahiralari aniqlangandan va tegishli bandlarga qo'shilgandan so'ng umumlashtirilgan balansning alohida bandi sifatida ifodalanadi.

Mos qiymat uslubi ishlatilganda birinchi yilda bog'liq jamiyatda ishtirok balans qiymati (xarid qiymati) bo'yicha emas, «ta'sir ko'rsatuvchi jamiyatning bog'liq jamiyatning o'z kapitali ulushiga mos» summada aks etadi. Bunda o'z kapitali deganda o'z balans kapitali emas, yangi qiymat uslubiga o'xshash tarzda kapitallarni umumlashtirishda mol-mulk va majburiyatlar qayta baholangandan so'ng belgilanadigan miqdor tushuniladi.

Keyingi davrlarda umumlashtirilgan hisobdorlikdagi Equity qiymati tegishli bog'liq jamiyatning o'z kapitali o'zgarishi miqdoriga qarab ko'payadi yoki kamayadi. o'z kapitalining bunday ko'payishi yoki kamayishi Bosh va sho''ba korxonalari guruhining moliyaviy natijalari to'g'risidagi hisobotda



alohida band sifatida aks ettiriladi. Biz bu maqsadda «Bog'liq jamiyatlarda ishtirok etishdan moliyaviy natija» deb atalgan bandni ishlatishni tavsiya qilamiz.

Birlashish uslubidan fondalanganda birinchi yilda quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatish lozim:

-chiqarilgan aktsiyalar turi va sonini har bir jamiyatning birlashtirish davomida ayirboshlangan ovoz beruvchi aktsiyalari soni bilan birga;

-u yoki bu jamiyat tomonidan boshqarilgan mol-mulk va majburiyatlar summasini;

-sotishdan tushgan mablag' va boiqa daromadlar, noan'anaviy daromadlar va xarajatlar, shuningdek birlashishgacha har bir jamiyat tomonidan olingan yakuniy moliyaviy natija, agar bu summalar umumlashtirilgan natijaga kiritilgan bulsa.

Agar umumlashtirilgan hisobotni tayyorlash hisobot sanasi bosh kompaniyaning hisobot sanasiga tug'ri kelmasa, ular ro'y bergan katta ishlar yoki voqealarni keyingi tuzatishlar sifatida aks ettirish lozim.

Bundan tashqari, yuqorida aytilganlardan tashqari, umumlashtirilgan hisobotga izoh tariqasida hisobotni yaxshiroq tushunishga yordam beradigan boshqa izohlar ham kiritilishi mumkin.

### **III BOB. KORXONALARDA MOLIYAVIY INVESTITSIYALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI**

#### **3.1. Milliy standartlar asosida moliyaviy investitsiyalar hisobini takomillashtirish masalalari**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiyalarning xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatidagi roli ayniqsa oshib bormoqda. Ushbu jarayon bozor iqtisodiyotining shakllanish va taraqqiy etish xususiyatlari va qonuniyatlari bilan shartlanadi.

12-sonli «Moliyaviy investitsiyalar hisobi» Buxgalteriya hisobining milliy standartining 9-bandiga ko'ra pulga sotib olingan qimmatli qog'ozlarning boshlang'ich qiymati o'z ichiga ushbu qimmatli qog'ozlarni sotib olishga ketgan xaqiqiy xarajatlarni oladi. Bunday qo'yilmalarni amalga oshirishdagi xaqiqiy xarajatlar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- Shartnoma asosida sotuvchiga to'lanadigan summa;
- Brokerlar xizmati, bank xizmatlari uchun to'lovlar, bojlar va boshqa xarajatlar.

Albatta qimmatli qog'ozlarni sotib olish xarajatlari ro'yxati kengayishi va o'xshash turdagi xarajatlar kiritilishi mumkin, ammo ular bevosita ushbu aktivni sotib olish bilan bog'liq bo'lishi lozim. 12 BHMS da bunday qo'shimcha xarajatlarning me'yori keltirilmagan. Umuman, fikrimizcha bunday xarajatlarni moddiylik nuqtai nazaridan kelib chiqib hisobda aks ettirish lozim. Bu borada xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga qo'shimcha xarajatlarning moddiylik darajasini aniqlashda mustaqillik berilishi xam variantlardan biri hisoblanadi. Agar qo'shimcha xarajatlar summasi shartnoma asosida sotuvchiga to'lanadigan summaga nisbatan sezilarsiz summani tashkil qilsa, bu xarajatlarni «Boshqa operatsion xarajatlar» tarkibida aks ettirish xam to'g'riroq bo'ladi. Albatta moddiylik darajasi hisob siyosatida belgilangan bo'lishi lozim. Ushbu darajaning hozirgi davrga mos foizlardagi miqdorda belgilanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Amaliyotda shunday xol xam bo'lishi mumkinki, korxonada moliyaviy investitsiyalarni sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish maqsadida informatsion va maslahat agentlarining xizmatidan foydalandi, lekin ushbu moliyaviy investitsiyalar oxir-oqibat sotib olinmadi. Bunday xolda xam ushbu xarajatlarni «Boshqa operatsion xarajatlar»ga olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Agar moliyaviy investitsiyalar qarz mablag'lar hisobiga xarid qilinsa ularning hisobda aks ettirilishi xam o'ziga xos bo'ladi. Afsuski bu xol xam 12 sonli BHMS da ochib berilmagan. Bu borada xalqaro standartlar bo'yicha qarz mablag'lari hisobiga olingan moliyaviy investitsiyalar boshlang'ich qiymatiga ularni kiringa olish davrigacha bo'lgan qarz bo'yicha foizlar summalari ham qo'shiladi. Masalan, moliyaviy qo'yilmalarni pulini to'lash vaqtida qarz mablag'lardan foydalanilsa, debitorlik qarzining summasi foiz summasiga oshiriladi. Moliyaviy investitsiyalarni kiringa olingandan keyingi hisoblangan foizlar operatsion xarajat sifatida moliyaviy natijalarga olib boriladi.

Investitsiyalarni kiringa olishdagi bahosini to'g'ri aniqlanishi moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun qanchalik muhim bo'lsa, moliyaviy investitsiyalarning tugatilishi, ya'ni qimmatli qog'ozlarni sotilishidagi qiymatini aniqlash xam muxim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlarning chiqib ketishi ularning qoplanishi, sotilishi, tekinga berilishi, boshqa kompaniyalarning ustav kapitaliga qo'yilishi va shu kabilar ko'rinishida amalga oshishi mumkin. Moliyaviy investitsiyalarni chiqib ketish sanasi bo'lib moliyaviy investitsiyalarning yangi soxibiga mulkchilik huquqi, qo'yilma bilan bog'liq risklarni o'tish sanasi hisoblanishi kerak.

Chiqib ketayotgan moliyaviy qo'yilmalar qiymatini aniqlash tartibi kotirovkaga ega va ega bo'lmagan qo'yilmalar uchun turlicha bo'lishi darkor. Agar chiqib ketayotgan qo'yilma bo'yicha joriy bozor bahosi aniqlanadigan bo'lsa, tashkilot tomonidan uning qiymati so'ngi bahoda baholanadi.

Nazariy jihatdan qimmatli qog'ozlar chiqib ketayotganida xuddi TMZlar singari o'rtacha boshlang'ich qiymati yoki FIFO usulida baholanishi mumkin. BHMS ga ko'ra moliyaviy investitsiyalar, albatta kotirovkaga ega bo'lgalari, xar

bir hisobot sanasiga qayta baholanib turishi lozim. Bunday xolda eng xavfsiz yul, fikrmizcha FIFO usulini qo'llash bo'lishi mumkin, buni o'ziga xos "sirpanuvchi" FIFO usuli deb atash mumkin. Bunda usul qimmatli qog'oz chikib ketgan xar bir sanaga qo'llaniladi.

Agar joriy bozor bahosi aniqlanmaydigan, ya'ni kotirovkaga ega bo'lmagan investitsiyalar chiqib ketayotgan bo'lsa, ularning bahosini quyidagi usullardan birida aniqlash maksadga muvofiq bo'ladi:

- Investitsiyalar baxgalteriya hisobining xar bir birligining boshlang'ich qiymati bo'yicha;
- O'rtacha boshlang'ich qiymati bo'yicha;
- Dastlabki qabul qilingan moliyaviy qo'yilmalarning boshlang'ich qiymati bo'yicha, ya'ni FIFO usuli.

Yuqoridagi usullardan birining qo'llanilishi moliyaviy investitsiyalar aloxida guruhlariga nisbatan qo'llanilib, korxonaning hisob siyosatida aloxida element sifatida aks ettirilgan bo'lishi lozim.

Shuni xam ta'kidlab o'tish lozimki, FIFO va AVECO usullarining BHMS larda faqat TMZ larga nisbatan qo'llanilishi mumkinligi nazarda tutilgan. Buni e'tiborga olgan xolda, FIFO va o'rtacha boshlang'ich qiymat usullarini qo'llashda ikkita variant bo'lishi mumkin: tortilgan va sirpanuvchi baholash. Sirpanuvchi baholash variantini operatsiya sodir bo'lgan xar bir sanaga nisbatan qo'llash imkoniyatini tug'diradi, bu ayniksa kompyuter dasturlaridan foydalanilganda eng yuqori samara berishi mumkin. Bu usullar albatta ilgari xam mavjud bo'lgan, lekin rasmiy ravishda izoxlanmagan. Sirpanuvchi usulning qo'llanilishi nisbatan ishonchlirok natijalarni beradi. Haqiqatdan xam ko'pchilik buxgalteriya dasturiy ta'minoti tizimlarida alohida qimmatli qog'oz bo'yicha tahliliy ma'lumotlar chiqarilganda ularning aniq mulkdori va ma'lum kundagi umumiy qiymatini olish imkoniyati mavjud. Umumiy summani qimmatli qog'ozlar soniga bo'lish orqali chiqib ketgan moliyaviy qo'yilma qiymatini aniqlash ancha qulay. Bu buxgalteriya dasturlarida xar bir sanada xar bir

qimmatli qog'ozni chiqib ketishi bilan bog'liq moliyaviy operatsiyaning natijasini olish imkoniyatini beradi.

Umuman olganda mamlakatimiz hisob amaliyoti uchun moliyaviy investitsiyalar yangi ob'ekt bo'lganligi bois, ularning hisobini takomillashtirish masalalari o'z dolzarbligini namoyon qilmoqda. Bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va ular ichidan eng maqbullarini mamlakat hisob tizimiga joriy etish foydadan xoli bo'lmaydi degan umiddamiz.

### **3.2. Xalqaro standartlar asosida investitsiyalarni baholashni takomillashtirish**

Investitsiyalarni baholash masalasi ko'rilgan moliyaviy hisobotning birinchi xalqaro standarti – 25-«Moliyaviy investitsiyalar» deb ataldi (Mazkur standart 2001 yildan bekor qilingan). U 1985 yilda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standarti (MHXS) bo'yicha qo'mita tomonidan qabul qilingan. Ushbu standartda investitsiyalarni hisobga olishning asosiy yo'nalishlari qimmatli qog'ozlar, berilgan qarzlilar (sho''ba va qaram jamiyatlarga qilingan investitsiyalar bundan mustasno, ular boshqa standartlarda ko'rib chiqilgan) va hokazolar korxonalar ishlab chiqarish faoliyatida ishlatilishi uchun emas, balki investitsion daromad olish maqsadida ko'chmas mulk ob'ektlari va boshqa aktivlarga qilgan investitsiyalar – «investitsion mulk» to'plami sifatida belgilangan edi. Shunday qilib, MHXS investitsiyalarning barcha ko'rinishlarini bir turdagi o'xshash tavsifli aktivlar sifatida ko'rib chiqqan. Shuning uchun ushbu aktivni hisobga olishda tasnifni tanlash umumiy bo'lgan. Investor korxonaga maqsadidan kelib chiqqan holda, uzoq muddatli va qisqa muddatli investitsiyalarga taqsimlangan.

25-MHXSda qisqa muddatli investitsiyalardan ajratishning aniq mezonini (investor maqsadidan tashqari) ajratilgan emasdi. Amalda moliyaviy investitsiyalarning bunday ajratilishi aktivlarni hisobga olishning umumiy tushunchalariga xos. Bu ularni ikki tarkibiy qismga: joriy va uzoq muddatligacha ajratish edi. Bundan tashqari, 25-MHXSda moliyaviy investitsiyalarni baholash

usullari bozor qiymati va tannarx tushunchalariga asoslangan. Qisqa muddatli investitsiyalar, ko'zda tutilganidek, bozor qiymatiga ega bo'lib, ular ikki qiymatning, ya'ni bozor qiymati va hisobga olingan qiymatlarning (tannarx) eng kichigi bo'yicha baholangan. Binobarin, ehtiyotkorlik tamoyili amalga oshiriladi. Uzoq muddatli investitsiyalarning tannarx yoki qayta baholangan qiymati yoxud faol bozorda ular bilan savdo qilinganda shakllangan bozor qiymati va tannarxning eng kichik qiymati bo'yicha baholanishi nazarda tutilgan edi.

25-MHXS bo'yicha moliyaviy investitsiyalarni baholash va tasniflashning asosiy kamchiliklari bo'lib:

- foydalanuvchi uchun qisqa va uzoq muddatli investitsiyalarni ajratishda ma'lumotlarning etarli emasligi;

- qisqa va uzoq muddatli investitsiyalarni ajratishda aniq mezonlarning yo'qligi, bu holda korxonalar maqsadlari to'la bo'la olmasligi;

- investitsiyalarni baholashda muqobil yondoshishlar miqdorining ko'pligi hisoblanar edi.

Investitsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobotlarda aks ettirish borasida keyingi qadam 1995 yilda 32-MHXS «Moliyaviy investitsiyalar ma'lumotni ochib berish va taqdim etish»ning qabul qilinishi bo'ldi. Bu standart moliyaviy investitsiyalarni, jumladan, moliyaviy investitsiyalar tasnifi, hisob siyosati to'g'risidagi ma'lumotlarni ochib berish, shuningdek, ushbu investitsiyalar bilan bog'liq masalalarni qamrab olgan. Biroq, 32-MHXSda moliyaviy investitsiyalarni baholash va ularni tan olishga daxldor masalalar ko'rib chiqilmagan. Bu qism bo'yicha 25-MHXS amal qilishni davom ettiravergan. U yuqorida aytilgan kamchiliklari tufayli korxonalarining moliyaviy aktivlarga qilgan o'z investitsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarni aniq taqdim etish, ular hisobotidan foydalanuvchilarning esa, taqdim etilgan ma'lumotlar asosida aniq iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi imkoniyatlarini cheklab qo'yar edi. Natijada moliyaviy investitsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish va hisobga olish tartibini belgilovchi xalqaro standartning ikkalasi: 25 va 32-MHXSlar qabul qilingan atamalar bo'yicha ham, masalalarining qamrab olgan

ko'lamini va talablarini batafsil ko'rib chiqish darajasida ham keskin farq qilar edi. Ya'ni, 25-MHXS korxonalar investitsiyalarini ko'rib chiqsa, 32-MHXS esa ham aktivlarga, ham majburiyatlarga, ham investitsiyalarga tarqaladi.

1995 yilda MHXS bo'yicha qo'mita va qimmatli qog'ozlar bo'yicha Xalqaro tashkilot komissiyasi o'rtasida hisobga olish xalqaro standartlarning kelgusi rivoji to'g'risida kelishuvga erishildi. Bu shundan iborat ediki, qo'mita hisobga olish standartlarini ishlab chiqadi, Xalqaro tashkilot komissiyasi esa ularni tahlil etib, sarmoya bozorida tatbiq va tavsiya etadi yoki ushbu harakatdan o'zini to'xtatadi. Moliyaviy investitsiyalarni, jumladan, moliyaviy investitsiyalarni baholash va ularni tan olish bo'yicha standartlarni ishlab chiqish loyihasi MHXS bo'yicha qo'mitaning asosiy loyihalaridan biri bo'lib, uning oraliq bosqichi 1998 yilda 39-MHXS «Moliyaviy investitsiyalar: tan olish va baholash»ning qabul qilinishi bilan yakunlandi.

39-MHXSda moliyaviy investitsiyalar quyidagilar:

- u 32-MHXS singari moliyaviy aktivlarga (qimmatli qog'ozlar, berilgan zayomlar, aktivlar bo'lgan moliyaviy investitsiyalar hosilalari) va moliyaviy majburiyatlarga (debitor qarzi, olingan kredit va qarzlari, majburiyat mezoniga javob beruvchi hosilaviy dastaklarga) tarqaladi;

- moliyaviy investitsiyalarning aksariyat qismi haqiqiy qiymat bo'yicha baholanadi;

- moliyaviy investitsiyalarni toifalarga bo'lish, GAAP bo'yicha qimmatli qog'ozlarni toifalarga bo'lish bilan deyarli bir xil. Birgina farqi boshqa korxonalariga zayomlar toifasining qo'shimcha ravishda kiritilganligidadir;

- 39-MHXS moliyaviy investitsiyalarni tan olish va baholash masalasi yuzasidan xalqaro kelishuvning oxirgi ko'rinishi emas. Chunki haqiqiy qiymat bo'yicha moliyaviy majburiyatlarni, shuningdek, hosila investitsiyalarni baholash bilan bog'liq holatlar qo'mita bilan muvofiqlashtirilmagan. Biroq moliyaviy investitsiyalarning tor guruhi, chunonchi, moliyaviy investitsiyalar miqyosida hisobga olish uslublari borasida xalqaro darajada kelishuvlarga erishganlik haqida ishonch bilan aytish mumkin.

39-MHXS 2001 yil 1 yanvarda kuchga kirdi. Bu standartning qabul qilinishi va kuchga kirishi orasidagi muddatning bunday cho'zilib ketishiga sabab, unda ko'rib chiqilayotgan masalalarning murakkabligi va uni qo'llash bilan bog'liq qiyinchiliklarning mavjudligidadir. Shu munosabat bilan moliyaviy investitsiyalar bo'yicha qo'shma ishchi guruh 39-MHXSning alohida jihatlarini amalda tatbiq etishga oid hujjatni ishlab chiqmoqda. Eng katta qiyinchiliklardan biri moliyaviy investitsiyalarning katta qismini haqiqiy qiymat bo'yicha baholashga o'tishdan iborat.

39-MHXS «Moliyaviy investitsiyalar» tushunchasi bilan ishlaydi. Investitsiya – bu, boshqa korxonaga mulkini qayta taqsimlash (foizlar, royalti, dividendlar va ijara haqi), kapitalning o'sishi shaklida yoki boshqa turdagi foyda olish maqsadida korxonaga egalik qiluvchi aktiv. Ta'rifdan ko'rinib turibdiki, «investitsiya» atamasi juda keng va moliya bozorini, ko'chmas mulk ob'ekti bozorini va hokazolarni birday qamrab oladi. U aniq bozor shaklidagi chegaralarga ega emas. Shunday bo'lsada, «investitsiya» atamasini qo'llash chegarasini moliyaviy bozor chegarasigacha keltirsak, anchayin tor va aniq «moliyaviy investitsiyalar» deb ataluvchi toifani olishimiz mumkin. Ushbu yondashishdan moliyaviy investitsiyalarga, pul mablag'laridan tashqari, ya'ni qimmatli qog'ozlar, boshqa korxonalarga berilgan qarzlari, talab etish huquqini boshqa shaxs foydasiga voz kechish natijasida olingan o'zga korxonalarining debitorlik qarzlari, shuningdek moliyaviy investitsiyalarning turli hosilalari – fyucherslar, opsiyonlar, varrantlar va hokazolarga qilingan turli investitsiyalar kiradi. 39-MHXSda buxgalteriya balansida ularni baholash maqsadlari uchun moliyaviy investitsiyalarning quyidagi tasnifi keltiriladi:

- savdo-moliyaviy investitsiyalar;
- so'ndirilgunigacha ushlanadigan moliyaviy investitsiyalar;
- boshqa korxonalarga berilgan qarzlari;
- sotish uchun mavjud moliyaviy investitsiyalar.

Savdo-moliyaviy investitsiyalar – bu, moliyaviy aktivlarga qilingan quyidagi investitsiyalardir:



- ushbu aktivlar narxining bozordagi qisqa muddatli o'zgarishidan yoki diler darajasi ko'rinishida daromad olish maqsadida amalga oshiriladi;

- bozorda qisqa muddat ichida chayqovchilik qilishga mo'ljallangan korxonalar investitsiya portfeli.

Bunda ushbu aktivlar qanday yo'l bilan olinganligi ahamiyatga ega emas. Shuningdek, qarz qimmatli qog'ozlarning so'ndirilish muddati ham ahamiyat kasb etmaydi – korxonalar ham qisqa muddatli, ham uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilib, marja ko'rinishida yoki narx o'zgarishi oqibatida daromad olishi mumkin. Odatda, savdo qimmatli qog'ozlar toifasiga «bozor qimmatli qog'ozlari» deb ataladigan, ya'ni faol bozorda sotiladigan qog'ozlar kiritiladi. Fond bozorida savdo tashkilotchisida qimmatli qog'ozlar kotirovkasining yoki dilerda ushbu qog'ozlarni sotib olish uchun belgilangan kotirovkasining mavjudligi qimmatli qog'ozlarni ushbu toifaga kiritishga mezon bo'lib xizmat qila oladi.

Savdo-moliyaviy investitsiyalarga ulushli qimmatli qog'ozlar – aksiyalar va qarz qimmatli qog'ozlar – obligatsiyalar kiradi. Shuningdek, likvid debitorlik qarz ham kirishi mumkin.

So'ndirilgunigacha ushlanadigan moliyaviy investitsiyalar – bu:

- tayinlangan yoki aniqlanadigan daromadga va tayinlangan so'ndirish muddatiga ega;

- boshqa korxonalariga berilgan qarzlarni bo'lmagan;

- korxonaning so'ndirilish muddati tugamagunigacha sotish niyati bo'lmagan moliyaviy investitsiyalar.

Xullas, so'ndirilguncha ushlanadigan moliyaviy investitsiyalarga qarz moliyaviy aktivlar, obligatsiyalar, talab etish huquqini boshqa shaxs foydasiga voz kechish natijasida olingan debitorlik qarzlarni, veksellar kiradi.

Boshqa korxonalariga berilgan qarzlarga:

- korxonada qarzdorga tovar yoki xizmatlar, pul mablag'larini bevosita berganida yuzaga kelgan;

- ularni keyinchalik sotish maqsadida olinmagan moliyaviy investitsiyalar kiritiladi.

Shunday qilib, boshqa korxonalariga berilgan qarzlarga, kreditor korxonalar bilan qarzdor korxonalar o'rtasidagi munosabatlardan vujudga kelgan barcha debitorlik qarzlari, jumladan, qarz (kredit) bitimlari bo'yicha investitsiyalar va banklarning depozit hisobvaraqlardagi qo'yilmalar kiradi.

Qarzlari (debitor qarz) boshqa korxonalariga berilgan qarzlari toifasiga quyidagi holarda kiritilmaydi:

- korxonalar boshqa korxonalar qarzini bozorda sotib olsa;
- korxonalar boshqa korxonalar qarzini talab etish huquqini boshqa shaxs foydasiga voz kechish yo'li bilan olsa;

Korxonalar sekyuritizatsiya jarayonida boshqa korxonadan, odatda, umumiy qarzlariidan ulush oladi. Sekyuritizatsiya – bu, korxonalar qarzlariiga likvid shakl berish maqsadida, shu qarz summasiga teng summada qimmatli qog'oz chiqarish, demakdir. Mohiyati jihatidan, bu korxonalar qarzini qayta tizimlash (restruktizatsiya) shakllariidan biridir. Ko'pincha sekyuritizatsiyalashda investor sifatida yirik banklar ishtirok etadi. Yuqorida qayd etilgan barcha hollar boshqa korxonalariga berilgan qarzlari tushunchasiga kirmaydi, chunki natijasi debitor qarz bo'layotgan bitimning bir ishtirokchisi bevosita qarzdor shaxs bo'lmayapti. Shu bois bu qarz kreditor niyati, qarz sifati va portfel tarkibiga bog'liq ravishda savdo so'ndirilganigacha ushlab turiladigan yoki sotish uchun mavjud moliyaviy investitsiyalar toifasiga kiritiladi.

Sotish uchun moliyaviy investitsiyalar – bu, yuqorida aytib o'tilgan biror-bir toifaga kirmagan moliyaviy investitsiyalardir. U aslida oraliq toifa bo'lib, unga bozori noaniq yoki ushbu investitsiyalarga nisbatan menejmentning aniq mavqelari bo'lmagan moliyaviy investitsiyalar kiradi.

Buxgalteriya hisobida yuqoridagi moliyaviy investitsiyalar toifalarini aks ettirish uchun «Moliyaviy investitsiyalar» hisobvarag'ida tegishli hisobvaraqlar ochiladi:

- savdo;

- so'ndirilgunicha ushlanadigan;
- sotish uchun mavjud bo'lgan;
- berilgan qarzlilar.

Buxgalteriya balansida moliyaviy investitsiyalarni aks ettirganda ular shunday toifalar bo'yicha ochib ko'rsatiladi. Bundan tashqari, agar korxonalar hisob va hisobotda aktiv hamda majburiyatlarni uzoq muddatli va qisqa muddatligalar ajratsa, ushbu tamoyilni moliyaviy investitsiyalarni uzoq muddatli va qisqa muddatligalar ajratishda ham qo'llash mumkin. Biroq, 25-MHXSda belgilangan moliyaviy investitsiyalarni tasniflash qoidasidan farqli o'laroq, 39-MHXSda moliyaviy investitsiyalarni uzoq muddatli va qisqa muddatligalar ajratish asosiy bo'lmay, balki qo'shimchadir. Binobarin, 39-MHXSga muvofiq, moliyaviy investitsiyalarni baholash tamoyillari investorlar ko'zlagan muddatlarga bog'liq emas.

Investitsiyalar hisobini takomillashtirish xususida so'z yuritar ekanmiz, ularning baholanish tartibini ham mukammallashtirish talab qilinadi. Ma'lumki, har qanday kompaniya oddiy aksiyalarining bozor bahosi (ya'ni kompaniyaning bahosi) kompaniyaning o'z investorlariga kelajakda to'lay oladigan dividendlarining hozirgi qiymatiga teng bo'lishi kerak. Ammo amaliyotda investorlar ko'pincha biror-bir kompaniya oddiy aksiyalarining bozor bahosini shu kompaniyaning kelajakdagi faoliyatidan oladigan naqd pul oqimlarining hozirgi qiymati orqali aniqlashmoqda.

Shuni e'tiborga olish kerakki, kompaniya bahosi dividendlar yoki sof pul oqimlari orqali aniqlanganda uning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalarini aniqroq ifodalaydigan buxgalteriya ma'lumotlaridan bevosita foydalanilmaydi. Vaholanki, dividend yoki sof pul oqimlari ko'rsatkichlari kompaniya faoliyatining moliyaviy natijalari to'g'risida, kutilayotgan foydalilik darajasi to'g'risida, mavjud aktivlar va ulardan foydalanish samaradorligi to'g'risida etarlicha tasavvur bera olmaydi. Shuning uchun g'arb olimlari kompaniyaning bozor bahosini uning sof aktivlari va sof foyda ko'rsatkichlari asosida aniqlashni

taklif qilishmoqda. Bu usul moliyaviy adabiyotlarda kompaniyaning bozor bahosini topishning normadan ortiqcha foydalar usuli, deb yuritiladi.

Aktsiyalar bahosini hisoblashning normadan ortiqcha foydalar usuli shunday bir mantiqqa asoslanadiki, unga ko'ra kompaniyaning bahosi shu kompaniya aktivlarining qoldiq qiymatiga va kompaniyaning kelajak faoliyatidan kutilayotgan foydaning investorlar talabidan qanchalik ko'p yoki kam ekanligiga bog'liq bo'lishi kerak. Aktsiyalar narxini aniqlashning normadan ortiqcha foydalar usulidan foydalanilganida kompaniya biznesining faqatgina tutgan davrdagi faoliyati emas, balki hozirgi va kelajakdagi aktivlari va bu aktivlarning biznes jarayonida qanchalik darajada samarali ishlatilayotganligi to'g'risida barcha ma'lumotlar e'tiborga olinadi.

Investitsiyalar hisobini takomillashtirishda yuqorida sanab o'tilgan usullarni keng qo'llash maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birgalikda investitsiyalar hisobini takomillashtirishda xalqaro hisob standartlaridan foydalanish lozim. Ammo xalqaro hisob standartlarini qo'llashda milliy xususiyatlarni, mamlakatda shakllangan xo'jalik yuritish uslubini ham hisobga olish zarur. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, investitsiyalar hisobini takomillashtirish uning barcha jihatlarini – ularni baholash, investitsiyalardan olinadigan daromadlar hisobini tashkil qilish, bu faoliyat bo'yicha olingan moliyaviy natijaning soliqqa tortish tartibini ham qamrab olishi lozim.

## **XULOSA**

O'zbekiston Respublikasida investitsiyalar bilan ishlovchi korxonalarda moliyaviy investitsiyalarni baholash, tashkil etishni o'rganishga bag'ishlangan ushbu bitiruv malakaviy ishda quyidagicha xulosalarga kelishga, tavsiyalar berish va takliflar kiritishga asos bo'ladi:

1. Bitiruv malakaviy ishda investitsiyalar va moliyaviy investitsiyalar borasida chet el va respublikamiz iqtisodchi olimlarining ushbu masalaga nazariy jixatdan yondashganliklari ilmiy asosda tahlil qilinib, investitsiya va moliyaviy investitsiyalarga ta'rif berildi. Investitsiya bu investitsiyalovchi korxonalar uchun kelgusida iqtisodiy samaraga erishish maqsadida o'zining yoki investitsiyalanuvchi korxonaning turli faoliyat ob'ektlariga kiritilgan mulkiy, moliyaviy va aqliy mablag'lar majmuasidir.

2. Buxgalteriya hisobini tartibga solib turuvchi me'yoriy hujjatlardan biri buxgalteriya hisobining 12 -sonli «Moliyaviy investitsiyalar hisobi» milliy standartida foiz, royalti, dividendlar va ijara haqi shaklida daromad olish investitsiya qilingan kapitalning o'sishi yoki investitsiya qilayotgan kompaniya tomonidan boshqa manfaatlarni olish maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ektning ixtiyorida bo'lgan aktivlarni moliyaviy investitsiyalar sifatida ta'riflanadi. Ushbu ta'rif olinadigan daromad nuqtai nazaridan qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlar (foiz, dividend) bilan bir qatorda, nomoddiy aktivlar (royalti) va lizing (ijara haqi) bo'yicha olinadigan daromadlarni ham kiritgan. Vaholanki, standartning amal qilish sohasi bo'yicha ushbu tur bo'yicha faoliyat boshqa standartlarda ko'rib chiqilishi ta'kidlanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, 12-sonli «Moliyaviy investitsiyalar hisobi» BHMS da keltirilgan ta'rifdan yoki investitsiya qilayotgan kompaniya tomonidan boshqa manfaatlarni olish maqsadida boshqa korxonalariga kiritilgan, dividend va foizlar ko'rinishida qo'shimcha daromad keltiruvchi hissali va qarz qimmatli qog'ozlar ko'rinishidagi korxonalar ixtiyoridagi aktivlardir».

3. Shuni ta'kidlash joizki, hozirda 0600-«Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar» schyotida ochilgan sintetik schyotlar ma'lum kamchiliklardan xoli emas. Jumladan, ularda jamlangan ma'lumotlar mos ravishdagi uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni aks ettiruvchi balans moddalarini qo'shimcha guruhlansiz bevosita shakllanishiga imkon bermaydi. Xususan, buxgalteriya balansining uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni aks ettiruvchi alohida satrlari 0600-«Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar» schyotida ochilgan barcha sintetik schyotlar, shuningdek ular bo'yicha yuritilgan analitik schyotlardan terib olinadi va jamlanadi. Bu esa o'z navbatida, sintetik schyotlarning balans satrlari bilan uzviy va bevosita aloqalarini susaytiradi, bundan tashqari, balansda umuman davlat, Markaziy Bank va mahalliy boshqaruv organlarining qarz qimmatli qog'ozlari, moliya-kredit muassasalarining aksiyalari va boshqa uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalarni aks ettiruvchi satrlar mavjud emas. Shuning uchun ham amaliyotda ushbu turdagi investitsiyalarga ega bo'lgan korxonalar ularni balansining mos bo'lmagan moddalarida ko'rsatishga majbur bo'lmoqdalar. Bundan tashqari, qo'shma va boshqa turdagi (masalan, jamoa, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar va boshqalar) korxonalarga kiritilgan moliyaviy investitsiyalar uchun buxgalteriya balansida ushbu turdagi korxonalarga kiritilgan uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni aks ettiruvchi satrlar ko'zda tutilmagan. Ushbu muammoni echish uchun balans satrlarini bosh kitob ma'lumotlari bilan uzviyligini oshirish maqsadida tavsiyalar berildi.

4. Yuqoridagilarga qo'shimcha qilib yana shuni aytish mumkinki, buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar investitsiyalarning kiritilishiga bog'liq bo'lgan korxonalarni sho''ba, uyushgan, qaram va qo'shma korxonalarga ajratish tartiblarini inobatga olmagan, ya'ni qaysi paytda biz kiritilgan investitsiyani sho''ba korxonasiga, uyushgan korxonaga va boshqa korxonalarga deb qarashimiz mumkin. Bu masalani echishda buxgalteriya hisobining jahon andozalariga muvofiq, kiritilgan investitsiyalarni ulush

ko'rinishida, ya'ni ovoz berish huquqiga ega aktsiyalarning 50% dan ko'pgina egalik qilsa sho''ba korxonasi, 20-50% gacha egalik qilsa uyushgan korxonalar sifatida ko'rsatma berish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

5. Hozirgi sharoitda hisob amaliyotida qimmatli qog'ozlarni hisobga olishning birlamchi hujjatlari mavjud bo'lmaganligi sababli ba'zi bir korxonalarda ushbu vaziyatda kassa kirim orderi asosida ro'yxatga olish hollari ham uchrab turibdi. Vaholanki, kassa kirim orderi faqatgina naqd pullarni kirim qilish uchun ishlatilishi mumkin. Yuqoridagilarni inobatga olib, qimmatli qog'ozlarni buxgalteriya hisobiga kirim qilish uchun «Qimmatli qog'ozlarni kirim qilish hujjati» ishlab chiqildi. Ushbu hujjat qimmatli qog'ozlar uchun moddiy javobgarlikning, shu bitimni ijro etayotgan shaxsdan, kassirga o'tkazilganligini qayd etish uchun zarur, qimmatli qog'ozlarning sotuvchidan oluvchiga o'tish holati oldi-sotdi dalolatnomasi bilan qayd etiladi. Hujjatsiz qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisi bo'yicha birlamchi hujjatlar depo schyotidan va reestrndan ko'chirmalar bo'ladi. Ko'rsatilgan birlamchi hujjat qimmatli qog'ozlarni hisobga olishda asos bo'ladi. Tadqiqotlar natijasida qimmatli qog'ozlarga dividend hisoblanganda xalqaro moliyaviy hisobotlar standartiga muvofiq ikkita usuldan foydalanish taklif etiladi.

6. Moliyaviy investitsiyalarni baholashda qiymat usuli qo'llanganda, investor o'z mablag'ini boshqa korxonaga dastlabki qiymat bo'yicha qo'yadi. Uning asosiy tamoyillari shundan iboratki, investitsiyalar qiymati sho''ba tuzilmalarning moliyaviy ahvolidan qat'iy nazar o'zgarmaydi, ulardan olinadigan dividendlar bosh jamiyat daromadi sifatida hisobga olinadi.

Bu usulni quyidagi hollarda qo'llash tavsiya etiladi:

- sho''ba jamiyatini keyinchalik yaqin kelajakda sotish uchun olingan va uni nazorat qilish ham vaqtinchalik bo'lganda;

- sho''ba jamiyati uning bosh jamiyatiga mablag' o'tkazish qobiliyatini jiddiy darajada kamaytiradigan belgilangan uzoq muddatli muhim sharoitlar doirasida faoliyat yuritganda. Masalan, sho''ba jamiyatiga qarz bergan tashkilot

tomonidan qo'yiladigan dividendlarni to'lashda cheklashlar mavjud bo'lishi mumkin.

7. Moliyaviy investitsiyalarni baholashda ulushbay ishtirok usulini bosh jamiyat tomonidan sho''ba jamiyatiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazish va nazorat qilish hollarida qo'llash tavsiya qilinadi, u quyidagilardan iborat:

- investitsiyalarning joriy qiymati sho''ba jamiyatining xo'jalik faoliyati natijalariga bog'liqlikda o'zgaradi: u foyda olganda investitsiyalar qiymati oshadi, zarar esa kamayadi;

- bosh jamiyat investitsiyalardan foydani egalik ulushiga mutanosib ravishda aks ettiriladi: uning sho''ba jamiyatidagi ulushi qancha ko'p bo'lsa, bosh jamiyat balansida investitsiyalar qiymati shuncha ko'p summaga oshiriladi;

- olingan dividendlar daromad sifatida qaralmaydi, balki investitsiyalar qiymatini kamaytirish tarzida ifodalanadi.

8. Hozirgi kunda moliyaviy investitsiyalar bilan faoliyat olib borayotgan tashkilotlar uchun ular hisobining auditorlik tekshiruvini o'tkazish dolzarb bo'lib bormoqda. Moliyaviy investitsiyalarni audit qilishdan maqsad, ularni buxgalteriya hisobida yuritilishi metodikasi va ulardan olingan natijalar bo'yicha soliqqa tortilish tartiblari O'zbekiston Respublikamizda tekshirilayotgan davrda harakatdagi me'yoriy hujjatlarga mos kelishi, shu bilan birga moliyaviy hisobot ma'lumotlarining ishonchliligi to'g'risida to'laqonli fikr shakllanishi bo'lib hisoblanadi.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun auditor mijozning ma'lum bir davrga tuzilgan moliyaviy hisobotini o'rganib, undagi moliyaviy investitsiyalarga tegishli ko'rsatkichlarning to'g'riligi, ishonchliligi, to'liqligi to'g'risida xulosa berish uchun quyidagi bosqichlarda amalga oshirsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

- 1) Auditni rejalashtirish;
- 2) Xo'jalik muomalalari auditi;
- 3) Auditorlik xulosasini berish;

Auditorlik tekshiruvi belgilangan dastur asosida olib borish jarayonida



turli xildagi yo'l qo'yilgan xatoliklar uchratilishi mumkin. Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklar va ularni amaldagi qonunchilik va mijozning moliyaviy ta'siri o'rganib chiqilgan bo'lib, tekshirish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolik holatlari uchraydigan bo'lsa, u holda auditor o'zining ishchi hujjatlarida ularni qayd etilishi lozim. Hozir amaliyotimizda moliyaviy investitsiyalarni audit qilish bo'yicha ishchi hujjatlarining namunaviy shakli mavjud emas. Shularni inobatga olib, biz ishchi hujjatlari va ichki hisobot shakllarini tavsiya etishni joiz topdik. Yuqoridagi ko'rsatilgan ma'lumotlardan O'zbekiston hududidagi barcha auditor tashkilotlari foydalanishlari mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2014.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – T.: Adolat, 2008.
3. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni - Toshkent 2016 y. 13 aprel.
4. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) 2000 y. 26 may.
5. “Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2014 yil 6 may.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 27 sentyabrdagi “Qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ–475-sonli Qarori;
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi ”Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida”gi PQ–615-sonli Qarori;
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 iyuldagi ”Auditorlik tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ–907-sonli Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 22 sentyabrdagi «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarning ahamiyatini oshirish to'g'risida»gi 365-sonli qarori.-T.: «Xalq so'zi», 2000 y, 26 sentyabr.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi “Ustav fondida davlat ulushi bo'lgan korxonalarining samarali boshqarilishini va davlat mulkini zarur darajada hisobga olinishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi 215-sonli Qarori;

11. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Buxgalteriya hisobining milliy standartlari» 1998-2008 yillar.

12. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Auditorlik faoliyatining milliy standartlari» 1998-2006 yillar.

13. Karimov I.A. "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi". -T.: «O'zbekiston», 2011. 56 bet.

14. Karimov I.A. "2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" -T.: "O'zbekiston", 2014. 64 b.

15. Каримов И.А. "2015 йилда иқтисодиётимизда туб таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, модернизация ва диверсификация жараёнларини изчил давом эттириш ҳисобидан хусусий мулк ва хусусий тадбиркорликка кенг йўл очиб бериш – устувор вазифамиздир " Т.: "Ўзбекистон" 2015й. 72 бет.

16. Каримов И.А. "Бош мақсадимиз – мавжуд қийинчиликларга қарамасдан, олиб бораётган ислохотларни, иқтисодиётимизда таркибий ўзгаришларни изчил давом эттириш, хусусий мулкчилик, кичик бизнес ва тадбиркорликка янада кенг йўл очиб бериш ҳисобидан олдинга юришдир" " Т.: "Ўзбекистон" 2016 й. 85 бет.

### **Darslik va o'quv adabiyotlari:**

17. Азизов Ш., Юлдашева С. Международный аудит. Учебное пособие Т.:Иктисод-Молия, 2013 г. 276 с.

18. Аренс А., Лоббек Д.Ж. Аудит. Пер. с англ. под. ред. проф. Я.В. Соколова, - М.: Финансы и статистика, 1995.

19. Барышников Н.П. Организация и методика проведение общего аудита. Москва - 1998.

20. Белоцерковский В.И. Бухгалтерский учет и аудит в коммерческом банке. Учебное пособие. - М.: "Экономика", 2005. - 294 с.

21. Бочкарева И.И. Бухгалтерский учет. Учебное пособие. –М.: Проспект, 2006. 776 стр.
22. Грачева М.Е. Международные стандарты аудита (МСА): Учебное пособие. - М.: Издательство ПРИОР, 2005. - 100 стр.
23. Донцова Л.В. Анализ финансовой отчетности. Учебник. –М.: Дело и Сервис, 2005. 366 стр.
24. Дўсмуратов Р.Д. Аудит асослари. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2003.-612 б.
25. Емельянов А.М. Общий аудит. -М.: Финансы и статистика, 1997.
26. Жарыгласова Б.Т. Международные стандарты аудита. Учебное пособие. - М.: НОРУС, 2005. - 400 стр.
27. Жуманиёзов К. Бозор иқтисодиёти шароитида хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий барқарорлигини таъминлаш муаммолари. -Т.: Абдулла Қодирий номидаги “Халқ мероси” нашриёти, 2004.
28. Камышанов П.И. Бухгалтерская финансовая отчетность: Составление и анализ. Учебное пособие. - М.:ОМЕГА, 2005. - 246 стр.
29. Камышанов П.И. Современная бухгалтерия и аудит на предприятиях и в банках-М.: 2000.-380 с.
30. Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Xalqaro audit. Darslik. –Т. Iqtisod-Moliya, 2015 у. 542 б.
31. Masharipov O, Ixomov SH. Amaliy audit. O`quv qo`llanma –Т. Cho`lpon, 2014 у. 264 б.
32. Meliev I., Kushmatov O., va b. audit. O`quv qo`llanma –Т. Iqtisod-Moliya, 2015 у. 283 б.
33. Fayziyev Sh., Dustmuradov R. va b. Audit. Darslik. –Т. Iqtisod-Moliya, 2015 у. 536 б.
34. Файзиёв Ш, Машарипов О и. др. Учебное пособие. –Т.:Иқтисод-Молия 2015г. 164 с.

35. Файзиёв Ш., Шаякубов Ш. и др. Аудит. Учебное пособие. – Т.:Иктисод-Молия 2015г. 288 с.

**Internet saytlari:**

<http://www.mf.uz> (Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги).

[www.mf.uz](http://www.mf.uz) - O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti;

[www.investuzbekistan.uz](http://www.investuzbekistan.uz) – O`zbekiston investitsiyaviy ma`lumotlari sayti;

[www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O`zbekiston Respublikasi hukumati portal;

[www.mfer.uz](http://www.mfer.uz) - O`zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar, savdo va investitsiya vazirligi rasmiy sayti;

[www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O`zbekiston Respublikasi qonunchilik to`plami;

[www.tfi.uz](http://www.tfi.uz) – Toshkent Moliya Instituti sayti;

[www.stat.uz](http://www.stat.uz) - O`zbekiston Respublikasi Statistika qo`mitasi sayti;

[www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) - O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.